

M.A.Ashurov

# Chet el musiqasi rivojida kompozitorlarning o'рни

Uslubiy qo'llanma



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**Ma‘rufjon ASHUROV**

**CHET EL MUSIQASI RIVOJLANISHIDA  
KOMPOZITORLARNING O‘RNI**

*Uslubiy qo‘llanma*



**Farg‘ona - 2023**

**Ashurov Ma'rufjon Abdumutalibovich.**

**Chet el musiqasi rivojlanishida kompozitorlarning o'рни.** Uslubiy qo'llanma., Farg'ona – 2023. – 79 b.

***Mas'ul muharrirlar:***

*Andijon davlat universiteti*

*Musiqqa ta'limi kafedrası katta o'qıtuvchısı*

**M.Nasrıddınov**

*Andijon davlat universiteti*

*Musiqqa ta'limi kafedrası dotsenti*

**Sh.Ahmedov**

***Taqrızcıhılar:***

*Andijon davlat universiteti*

*Musiqqa ta'limi kafedrası katta o'qıtuvchısı*

**Q.Nurđınov**

*Andijon Pedagogıka kolleđı*

*Musiqqa kafedrası xor dirıjorlık fani yetakchı o'qıtuvchısı*

*«Mehnat shuhratı» ordenı sovrındorı*

**X.A.Xodjayev**

*Mazkur uslubiy qo'llanma musiqqa tarıxı fani uchun mo'ljallangan. Uslubiy qo'llanmada qadimgı dunyo antik davrı, qadimgı davr musiqqa san'at va uyg'onısh davrı musiqqa san'atı hamda Barokko davrı musiqqa madaniyatı yoritib berilgan bo'lib, ularga qo'shimcha ravıshda bir qancha chet el kompozıtorları hayotı va ijodı haqıda ma'lumotlar berilgan*

*Ushbu uslubiy qo'llanmadan nafaqat oliy ta'lim muassasasida balki, Bolalar musiqqa va san'at maktablari o'quvchı va o'qıtuvchılari ham foydalanıshları mumkin.*

## Qadimgi dunyo antik davri.

**Antik davr** – (lot. *antiquus* – qadimiy, qadimgi) qadimgi yunonlar<sup>1</sup> va rimliklar madaniyatiga<sup>2</sup> xos davr. Uygʻonish davrida<sup>3</sup> yuzaga kelgan atama. Keng maʼnoda qadimgi davrni anglatuvchi termin; isteʼmolda boʻlgan maʼnoda esa Yunoniston va Qadimgi Rim tarixi va madaniyatining ellinizm<sup>4</sup> davrini anglatadi.

**Ellinizm** – Makedoniya, Yunoniston, Oʻrta dengizning sharqiy sohillari, Gʻarbiy Osiyo, Qora dengiz atrofidagi mamlakatlar tarixining Aleksandr (Iskandar) istilosi (miloddan avvalgi 334 – 323 yillar)dan miloddan avvalgi 30 yilda Misr Rim qoʻshinlari tomonidan ishgʻol etilgan paytgacha oʻtgan davr. "Ellinizm" atamasi ilmda dastlab nemis olimi I.G. Droyzenning 1836 – 43 yillarda chop etilgan 2 jildli "Ellinizm tarixi" asarida qoʻllangan va ushbu atama orqali ellinlarning Sharq mamlakatlaridagi hukmronligi va ular madaniyatining Sharq xalqlari madaniyati bilan uygʻunlashib hosil qilgan yangi madaniyat tushunilgan. Keyinchalik ayrim tadqiqotchilar ellinistik olam hududi va davr doirasini kengaytirib, madaniyati yunonlar taʼsirida shakllangan barcha mamlakat va xalqlarni koʻzda tutadilar. "Ellinizm" deganda, yunon madaniyati rivojinigina nazarda tutib, yunon madaniyatidan Rim madaniyatiga oʻtish davrining oʻzi, deb hisoblaydiganlar ham bor.

Miloddan avvalgi 336 yilda Makedoniya shohi Aleksandr Yunonistonni zabt etib, yunon, makedon xalqlaridan toʻplangan katta qoʻshin bilan Sharq mamlakatlariga qarshi urush boshlaydi va koʻp oʻtmay Hindistonga qadar choʻzilgan bepoyon oʻlkaning yakka hukmdoriga aylanadi. Aleksandr vafot etganda (miloddan avvalgi 323 yil), uning davlati tarkibida Bolqon ya.o., Egey dengizidagi orollar, Kichik va Gʻarbiy Osiyo, Misr, Markaziy Osiyoning bir qismi bor edi. Aleksandr vafot etgach, uning merosxoʻrlari oʻrtasida hokimiyat uchun kurash borib, mamlakat parchalanib ketgan. Shu tariqa ellinistik davlatlar yuzaga kelgan. Biroq Ellinizm davrida bu hududdagi turli mamlakat va viloyatlar ijtimoiy-

---

<sup>1</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Yunoniston>

<sup>2</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Madaniyat>

<sup>3</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Uyg%CA%BBonish\\_davri](https://uz.wikipedia.org/wiki/Uyg%CA%BBonish_davri)

<sup>4</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Ellinizm>

iqtisodiy taraqqiyotning turli pogʻonasida boʻlganlar: baʼzilarida quldorlik munosabatlari (Makedoniya), ayrimlarida polis tuzumi tarqalib, qulchilik va qullikning antik shakllari vujudga kelgan (Misr, Salavkiylar davlati). Koʻpgina qabilalar (ayniqsa, ellinistik davlatlarning chegara hududlarida yashaganlar) uchun esa urugʻchilikdan sinfiylik jamiyatiga oʻtish davri boʻlgan.

Ellinizm davri sharqiy mamlakatlar uchun taraqqiyotning yangi bosqichi boʻldi. Yunonmakedoniyaliklar Sharqqa ishlab chiqarish malakalarini, oʻz davlat va huquq meʼyorlarini, urf-odat, din va madaniyatlarini olib keldilar, oʻz navbatida, Sharqdan oʻrgandilar ham. Davlat boshqaruvida qadimiy sharqiy monarxiya usullaridan foydalanildi. Pul va savdosotiq munosabatlari rivojlangan oʻlkalar (Mesopotamiya, Suriya, Kichik Osiyo)da polislar ravnaq topdi. Polislar oʻzgardi, yaʼni ular mustaqil respublika boʻlmay, maʼlum siyosiy va iqtisodiy imtiyozlarga ega shahar jamoalariga aylandilar.

Yunonlarning qadimiy nomi – "ellinlar" atamasi oʻz etnik mazmunini asta-sekin yoʻqota borib, makedoniyalik, yunon va mahalliy yuqori tabaqaga mansub kishilarni ifodalaydigan soʻzga aylanib qoldi.

Merosxoʻr (diadox)lar oʻrtasidagi kurashlar miloddan avvalgi 3, miloddan avvalgi 2-asr boshlarida ham davom etdi. Ptolemeylar imperiyasi, Salavkiylar davlati, hududiy jihatdan ulardan kichik boʻlsa ham, ijtimoiy tuzum jihatidan ularga yaqin boʻlgan Pergam va Kichik Osiyodagi boshqa hukmdorliklar, yunon polislari, ellinistik olamning chekkalaridagi Skiflar podsholigi, Armaniston, Parfiya va boshqalar oʻrtasida tinimsiz urushlar xalq boshiga qoʻp ofatlar keltirdi. Shunga qaramay dengiz sohillari bilan mamlakat ichkarisidagi hududlar oʻrtasida iqtisodiy aloqa yaxshilana bordi, mahsulot ishlab chiqarish, savdo (xususan, tashqi savdo) rivoj topdi. Shaharlar savdo va hunarmandchilik markazlari sifatida yuksaldi (Iskandariya, Rodos oroli, Antioxiya, Salavkiya, Pergam). Misr, Suriya, Kichik Osiyo, Yunoniston va Makedoniya oʻrtasida doimiy dengiz yoʻli mavjud edi. Qizil dengiz hamda Fors qoʻltigʻi boʻylab Hindistonga savdo yoʻli ochildi. Misr Qora dengiz atroflari Karfagen va Rim bilan savdo aloqasini yoʻlga qoʻydi. qadimiy karvon yoʻllarida polislar va gavanlar yuzaga keldi. Shu bilan birga,

ushbu davr polislar federatsiyasi (ittifoqi)ga ehtiyoj tug'dirdi (bir necha polislar birlashdi). Ammo bu ittifoqlar orasida ham nizolar davom etdi, ijtimoiy qurash kuchaydi. Miloddan avvalgi 2-1-asrlarda isyonlar va ozodlik harakatlari jonlandi. Attika, Pergam, Delos o.larida qullar isyoni, Misr va Salavkiyada dehqonlar qo'zg'oloni yuz berdi. Ayni paytda Rimning mavqei osha bordi. U miloddan avvalgi 197 yilda Kichik Osiyoni, Egey dengizidagi orollarni va Yunonistonni bosib oddi. Rim Ellinizm davlatlarini birinketin ishg'ol etib, miloddan avvalgi 30-yilda Misrni ham qo'lga kiritdi va Ellinizm davriga barham berdi.

**Qadimgi davr musiqa san'ati.** Musiqa san'ati qachon va qayerda paydo bo'lgan? Uning shakllanishi va rivojlanishi qanday kechgan? Musiqa san'atining yuzaga kelishida qanday omillar muhim ahamiyatga ega bo'lgan? Shu kabi savollar azaldan insoniyatni qiziqtirgani ma'lum. Turli xalqlarda bu borada xilma-xil rivoyat va afsonalar, og'zaki ijod turida ertak va dostonlar shakllangan. Musiqa san'ati yaratgan parvardigorning qudrati ila bu olamda paydo bo'ldi, degan birlamchi g'oyalar ham ilgari surilgan.



Etnografik va arxeologik tadqiqotlarga tayangan ko'plab olimlar musiqa san'ati insoniyatni ibtidoiy jamiyat davrida shakllanishi, uning bevosita mehnat va dam olish jarayoni, diniy marosimlar va harbiy yurishlar bilan bog'liq holda rivoj topishini ta'kidlaydilar.

Arxeologik qazilmalar asosida qadimgi devoriy suratlarda aks etib bitilgan chizma rasmlar orqali o'lim marosimlarida ijro etiluvchi yig'i-marsiyalar, harbiy marshlar, allalar, cho'pon kuy va qo'shiqlari shu singari aynan ko'plab musiqiy janrlar mavjud bo'lgani xususida asos yaratgan.

Sharq mamlakatlariing rivojlanish davrida (milodiy V-III ming yil avval) musiqa madaniyatning ajralmas bo'lagiga aylanganligiga guvoh bo'lamiz. Qadimgi Misr, Suriya, Shumer, Bobil, Hindiston va Xitoy mamlakatlarining saroy marosimlari musiqasiz o'tkazilmagan. Musiqaga ilohiy va afsungar qudratga ega

bo'lgan tirik jonzotlar, xudolar, tabiat va koinotga o'z ta'sirini o'tkazuvchi mo'jizakor kuch sifatida qaralgan.



Bizning asrimiz boshida musiqa haqida tasavvurlarni aks ettiruvchi ko'plab diniy, axloqiy va nazariy risolalar paydo bo'ldi.

Ko'pincha musiqa san'atining barcha kichik bo'laklari xususida, jumladan, tovushqator, parda asosi, ton va musiqiy cholg'ular haqidagi tasavvurlar aniq timsoliy va ramziy ma'no o'rnida izoh etilgan. Saroy va diniy maskanlarning oliy tabaqador va noziktaab musiqa san'atiga nisbatan qarama-qarshi oddiy avom xalqning sodda qo'shiq-kuylari, raqs va aytimlari taqqoslangan.



Asta-sekin professional musiqachilar doirasi shakllanib, ularning atrofida maktablar rivojlanib borgan. Ustoz-shogird tizimiga asoslangan bu maktablarda ustoz o'zining falsafiy, estetik qarashlari, nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalarini shogirdlariga o'rgatgan. Ma'lumki, musiqa san'atini qadimgi antik davlatlar, xususan, gullash davri milloddan avval V-IV asrlarga to'g'ri kelgan Qadimgi Yunon musiqa madaniyati misolida ko'rish mumkin.

Qadimgi Yunon musiqa madaniyati haqidagi tasavvurlar arxeologik qazilmalardan topilgan buyumlar, qadimgi yozma manbalar, adabiyot yodgorliklari va maxsus musiqiy parchalar tahlilida shakllanib keldi. Qadimgi Yunon musiqasining rivoji taxminan miloddan avvalgi ikki ming yillikdan tortib, miloddan avvalgi V asrga qadar bo'lgan davrni qamrab oladi.



Qadimgi Yunon musiqasining xalq qo'shig'i janrlari haqida malumotlar hozirda ham mavjud. Xususan, "georgiki" - dehqon qo'shiqlari, "epitalama" va



“gimenei” - to’y qo’shiqlari, “trena’-yig’i qo’shiqlari, “embateriya” - safar qo’shiqlari, “skolii” - davra qo’shiqlari va yana bir qator qo’shiqlar turlari yunonlarning amaliy hayotidan keng o’rin oigan. Bu esa, o’z o’rnida, folklor musiqasi ma’lum darajada rivojlanganining belgisidir.

Qadimgi Yunon musiqasida xudolar sharafiga ijro etiluvchi qo’shiqlar alohida o’rin egallaydi. Masalan, “peana” va “noma”- Apallon, “parfenii” va “yupingi”- Artemida, “difiramb”, “iobakx” va “fallik’-Dionis, “iula”- Demetra, “metroa”- Kibela va yana bir qator xudolar sharafiga ijro etilgan qo’shiqlar mavjud bo’lgan. Eng qadimgi qurbonlik marosimi “spondey”- sinkretik janr bo’lib, asosan musiqa va raqs harakatidan tarkib topadi.


Ilk bor musiqani yaratgan va ijro etgan san’atkorlar- “*aed*” deb nomlanib, u bir vaqtning o’zida shoir, bastakor, qo’shiqchi va jo’mavoz (torli asbob jo’rligida) vazifasini bajarar edi. Mashhur musiqachilar ijodi Qadimgi Yunon afsonalarida (Olimp, Orfey, Famirid, Marsiy) va epik poemalarida (Gomeming “Odisseya”sida, Demodok va Femiy asarlarida) tilga olinadi.



Qadimgi Yunon musiqasining *arxaik* davri (miloddan avvalgi VII-VI asrlar) quyidagi mashhur ismlar bilan bogianadi: Terpandr, Arxilox, Arion, Tirtey, Alkman, Stesixor, Sapfo, Alkey, Anakreont, Mimnerm, Ivika, Pindara, Vakxilid.

Yangi shakl topayotgan davrda turli xil janrlar rivoj topadi: avlodik va kifarodik nomlar (kifara va avlos jo’rligidagi qo’shiqlar), avletik va kifaristik nomlar (avlos va kifara yakkasoz cholg’u uchun pyesalar), elegiya, giporxema (raqs harakati bilan bezatilgan qo’shiq), epinikiya va hokazolar.

Qadimgi Yunon musiqasining klassik davri (miloddan avvalgi V-IV asrlar) tragediya va komediya janrlari rivojining yetuk pallasini hisoblanadi.



Bizgacha Qadimgi Yunoniston musiqa san'ati haqida musiqiy namunalar kam yetib kelgan bo'lsa-da, biroq ular haqida ma'lumot Gomer poemalari, qadimgi xumdon, terakkota haykallari, saroy anjom va idishlari, maqbara devorlarida bitilgan suratlarda saqlanib qolgan.

Eslatib o'tish lozimki, yunon xalqi juda mohir raqqoslar bo'lib, ko'pincha o'zlarini jozibali raqs harakatlarini puflama cholg'usi - avlos jo'rligida ijro etishgan. Ularning sehrliligi va maftunkor ovozlari tarannum etilgan qo'shiqlar, torli cholg'ular - lira va kifara tovush sadolari bilan bezalgan.

Tantanalilik aytim va rivoyatlarni kuylovchi professional va mohir xonandalar - aedlar xalq orasida katta hurmat va ehtiromga sazovor bo'lgan. Agar jismoniy kuch va iroda Olimpiya yig'inlarida namoyish etilgan bo'lsa, xonanda va sozandalar, shoirlar uchun alohida musobaqa - Pifiya yig'inlarida tashkil qilingan. Ko'p san'at ahli Pifiya o'yinlarida ishtirok etib, Olimpiya sport ustalari kabi musobaqada g'oliblikni qo'lga kiritishga, g'oliblik nishoni bo'lmish - lavr gulchambarlari bilan mukofotlanar edi.

Antik madaniyatning eng yuksak yutuqlaridan biri o'z ichida drama va she'riyat, musiqa va raqslarni mujassam etgan qadimgi tragediyalar (fojialar) bo'ldi. Ayniqsa, Esxil, Sofokl, Yevripid qalamiga mansub



tragediyalar dunyoda nihoyatda mashhur bo'lgan. Bugunda ularning nomisiz jahon hamda Yevropa drama va musiqa teatrlari rivojini tasavvur qilib bo'lmaydi. Buyuk tragiklar - Esxil, Sofokl, Yevripid va komediyachi Aristofan o'z durdonalarida musiqaga muhim dramaturgik vazifani yuklaganlar.

Ushbu davrda musiqa tilida burilish yasagan xor lirikasi yunon adabiyot vakillari va dramaturglari - Timofey, Friniya, Kreks, Melanippida ijodiy izlanishlarida ro'y beradi. Qadimgi Yunon musiqasi aynan ellinistik davrda


(miloddan avvalgi IV asrning ikkinchi yarmidan boshlab) keng miqyosda o'rtadengiz yerlarida tarqab boradi.

Singnoten: A' B' Γ' Δ' E' Z' H' Θ' I' K' Λ' M' N' Ξ' O' Π' J' Φ' X' Ψ' Ω'  
 Instrument: V' / N' Γ' J' L' C' > V' < Λ' < Γ' X' Ξ' K' C' U' C' F' L' F' Y' Y' P'  
 Quinte Noten:



Qadimgi Yunon musiqasida ashula va cholg'u yo'llarida harfiy notalashtirish uslubi qo'llanilgan. Yunon musiqasi bir ovozli turida rivojlangan bo'lsa-da, ashula yo'li cholg'u jo'rligini ijro etish evaziga garmonik intervallar hosil bo'lgan.

Qadimgi yunonlarning lad tafakkuri asosini tetraxordlar tashkil etgan, tovushlarning musiqiy aloqalari kvartani o'ziga xos tarkibi qamrovida anglangan. Qadimgi Yunon musiqasi amaliyotida turli xil cholg'u asboblari keng qo'llab kelinganligi ma'lum:



ANCIENT EGYPTIAN SYSTEM

- torli guruh - lira, kifara, forminga, kinir, barbiton, lirofeniks, sambika, spadiks, psalteriy, magadis, pektida, epigoniy, nabl;
- damli guruh - avlos turli xillari (bombiks, borim, kalam, gingr, niglar, elim), siringlar (bir-ikki va ko'p trubali) va truba (salpinga, keras);
- urma guruh - timpan, sistr, kimval, krotal, psifir, roptr.

Aleksandriyalik mexanik Ktesibiy (miloddan avvalgi III-II asrlar) birinchi suvli organ - gidravlos asbobini kashf etgan.



Qadimgi Yunonistonda, shuningdek, musiqiy nazariya va musiqiy estetika sohalari mukammal darajada rivoj topadi. Pifagor va pifagorchilar maktabi musiqaning bir qator akustik qonuniyatlarini ilmiy darajada izohlab berdilar. Aristoksen ilmiy izlanishlarida interval va tovushqatomi empirik-eshitish hissiyotini o'rganib chiqqan. Musiqa nazariya ilmidagi keyingi tadqiqotlami - Nikomax, Klavdiy Ptolemey (miloddan avvalgi I-II asrlar), Aristid Kvintilian, Porfiriy, Allipiy (miloddan avvalgi III-IV asrlar) muvaffaqiyatli amalga oshirganlar. Musiqaning etik masalalari, shuningdek, ushbu yo'nalishdagi konsepsiyani bir qator antik

olimlar o'rganib chiqqanlar. Ular orasida Platon va Aristotel izlanishlari alohida e'tiborga loyiq.



Shuni ta'kidlash joizki, qadimgi Yunonistonning gullab-yashnagan davrida Yevropa badiiy madaniyati rivoji uchun tamal toshi solingan. Bugungi kunga qadar biz o'sha uzoq davrda iste'molda bo'lgan va qo'llanilgan ko'plab musiqiy tushunchalar hamda atamalardan foydalanib kelmoqdamiz. Qolaversa, "musiqa" so'zining ma'nosi ham uning so'z o'zagi bo'lmish "muza" dan olingan bo'lib, qadimgi yunonlarning asosiy bosh xudosi bo'lmish - Zevsning qizlari nomi bilan qiyoslanishi bejiz bo'lmagan.

Qadimgi Rim badiiy madaniyatining shaklanishi bevosita mazkur an'analar vorisligi (etrus, yunon, ellinistik) va Rim davlatining (miloddan avvalgi III asr oxiridan miloddan avvalgi V asrgacha) kengligi bilan uzviy bog'liq edi.

Qadimgi Rim madaniyati nisbatan mustaqil ravishda rivojlangan bo'lib, mazkur davlatning musiqaga taalluqli ma'lumotlari juda kam. Bu davrlarda maishiy musiqiy-shoirona janrlar (tantana, to'yona, davra, zikr kabi qo'shiqlar), asosan damli asboblari, rog va trubalarda ijro etilgan harbiy musiqa hamda "salio" va "arvaliyali aka-ukalar" aytilimi mashhur bo'lgan.



maktablarda yunon tilida dars o'tilishi, yunon san'at buyumlarini xarid qilish va h.k.).

Miloddan avvalgi V asrdan e'tiboran, Rim davlati san'atida yunon san'atiga moslashuv harakati kuzatiladi (xususan, bu mifologik mavzulami qo'lanishida,

ritorik




Yunoniston kabi Rimda ham poetik asariarni (Goratsiy odalari, Vergiliy ekloglari, Ovidiy poemalari) tibiya va kifara asboblari jo'rligida ijro etish san'ati keng targ'ib qilindi. Keng qo'llanilgan cholg'ular orasida arfa va liraning xilma-xil turlari, gidravlos (suvli organ cholg'usi), kimval va boshqalami e'tirof etish joiz.



Pantomima teatri tarkibida ishtirok etgan yakkaxon-raqqos va unga jo'r bo'lgan xor hamda turli-tuman cholg'u asboblarning katta guruhi kelgusida aynan cholg'u musiqa sohasi rivojida muhim ro'l o'ynadi.

Qadimgi Rim madaniyati yunonga nisbatan, o'z demokratik rivojidan chetlashib, endilikda tomoshabop - orombaxsh shaklu shamoilida rivoj topdi. Musiqaning gedonistik tushunchasiga bo'lgan katta qiziqish Rim zodagonlari orasida havaskorlikning rivojlanishiga olib keldi (imperator Neron "yunon musobaqalarini" tashkil qiladi va bu yerda o'zi ham qo'shiqchi va kifarachi sifatida qatnashadi).

Miloddan avvalgi I asr yakunida imperator Domitsian yunon "Pifiya o'yinlari" kabi shoirlar, xonanda va sozandalar orasida "Kapitoliy musoboqalar"ni tashkil etdi. Rim imperiyasining taniqli musiqachilari - Anaksenor, Tigelliy, Menekrat, Mezomed, Terpniy, Diodor nomlari elga tanildi.



O'z qudrati va saltanatini kengaytirib borgan, Qadimgi Rim madaniy hayotida (gullash davri miloddan



avvalgi III asrdan boshlab, to milodiy III asrga qadar davom etgan) musiqa ijtimoiy ahamiyatga ega hodisa bo'lgan.

Musiqa san'ati, shakl va janrlari barcha bayram va marosimlar, qadimgi va

mashhur bo'lgan gladiatorlar kurashlari, sirk va teatr tomoshalari, pantomima san'atlariga jo'r bo'lib kelgan.

Ko'plab mamlakatlar va davlatlarga g'alabali yurishlarni qilgan Rim harbiylari tarkibiga bir necha yuz yilliklar davomida katta sonli harbiy orkestr kirgan. Rim va yunon zodagonlarining oilalarida farzandlariga shartli ravishda musiqa va raqsdan bilim berganlar, ularni o'rgatgan ustozlami esa, jamiyatda va xalq orasida katta obro'-e'tiborga loyiq deb topganlar.

Qadimgi Rim imperiyasining sharqiy va g'arbiy qismlarga parchalanib ketishi (395-yil), so'ngra g'arbiy Rim davlatining xonavayron bo'lishi (476-yil) Antik davlat botishidan dalolat berdi.

Xristian dini Rim imperiyasiga yangi madaniyat, yangicha tafakkur, yangi g'oyaviy olamni olib keldi. Bu madaniyat "butparastlik" madaniyatidan tubdan farq qilgan. Milodiy II asrdan boshlab Qadimgi Rim musiqasining rivojini ilk xristian musiqasi bilan birlashtiradi.

Shu bilan Yevropa qit'asidagi musiqa tarixida yangi davr boshlanib, u O'rta asr davri bilan e'tirof etildi.



*Uyg'onish davri musiqa san'ati.* O'n ikki yuz yillik mobaynida davom etgan bu katta asr ijtimoiy jarayon-hodisalarning keskinligi va murakkabligi bilan tavsiflanadi. Xonavayron bo'lgan Rim imperiyasi hududlarida tez orada ro'y bergan qonli urushlar, dehqonlarning hokimiyatga qarshi norozilik chiqishlari, diniy va dunyoviy hokimiyat o'rtasidagi ziddiyatlarning tobora kuchayib avj olishi, olim va yozuvchilar tomonidan bu davrni "zulmat va qorong'u" ranglarda aks etilishiga sabab bo'lgani bejiz emas.

G'arbiy Yevropa musiqa madaniyatining mazkur davri keng qamrovli va davomiyligi, o'rta asr davrini yaxlit ko'rinish bilan anglab izohlashga birmuncha mushkullik tug'diradi. Qolaversa, XII asrlarga qadar musiqa san'atining faqatgina bir sohasi, ya'ni xristian cherkovlari musiqasi bizgacha yozma yodgorliklarini qoldirdi.

Yarim ming yillik davomida G'arbiy Yevropa musiqa madaniyati cherkov va xalq musiqa sohalari doiralari bilan chegaralanib kelindi, ammo XII-XIII asrlarda saroy musiqiy-sholrona ijodiyoti yangi shakllari va cherkov musiqasining yangicha ko'rinishi bilan boyitildi. Yangilanish jarayoni rivojlangan feodalizm shart-sharoitida amalga oshirildi.

XVII asrga qadar diniy cherkov maskanlari - musiqa san'atini professional markazi bo'lib kelgan. Cherkov madaniyati doirasida yuksak badiiy qadriyatlar, turli xil musiqiy janrlar, musiqa nazariyasi, notalashtirish va pedagogika ilmi rivoj topdi.

Yevropa madaniyati uchun cherkov va saroy san'atlarining o'zaro bog'lanish jarayoni juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ilk xristian cherkov musiqasi O'rta yer dengizining bir qator madaniyatlari (xususan, Iudey, Misr-Suriya-Falastin, kechki antik) an'analari bilan bevosita bog'liq edi. Sinagog va xram ibodatlariga antifon va responsorial psalmodiya ildizlari tortiladi. Madhiyalarda antic madhiyachilikning ta'siri ham seziladi.

Bibliyadan olingan parchalarni xirgoyi qilish an'anasi (liturgik rechitativ) ham shakllana boshladi, "agapa" yoki "muhabbat kechalari" xristian ibodat marosimining asosiy shakllari paydo bo'lishida muhim ahamiyat kasb etdi. Ulardan esa liturgiyaning kechki shakllari asta-sekin rivoj topdi. Tobora cherkov ibodatining yaxlit, turkumli tizimi shakllandi: kuniik ibodat (asosiy marosim - tushlik vaqti), hafta ibodati (markazida yakshanba kunidagi marosim), yillik ibodati (ko'chiriladigan va ko'chirilmaydigan bayram marosimlari). Ilk xristian qo'shiqchiligi bir ovozli an'anada rivojlangan edi. Uzoq asrlar mobaynida (1 ming yillikning oxirigacha) cherkov qo'shiqchiligida ayollarning ishtirok etishi va musiqiy cholg'ularning qo'lanilishi man etilgan. Cherkovni G'arbiy katolik va Sh&vqpravoslav turlariga bo'linishi 1054-yili "sxizma" bilan rasmiy tasdiqlangan.

G'arbiy Yevropada bir qator katolik mahalliy markazlari, o'zlarini liturgiyalari bilan namoyon bo'ldi: Rim, Milan, Qadimgi Ispan, Qadimgi Fransuz, Kelt liturgiyalari nihoyatda mashhur bo'ldi. Asta-sekin rasmiy Rim xorali (Grigoryan xorali) barcha mintaqaviy an'analarni chetga surib, markaziy maydonni

egalladi. Katolik qo'shiqchiligidagi amalga oshirilgan islohot Rim Papasi Grigoriy I nomi bilan bog'liqdir. Ma'lumki, Grigoriy I hokimiyatga VI-VII asr o'rtalarida keldi. Grigoryan xoral kuylash san'ati bilan qiyoslanadi.

Melodik va ritmik sur'atlari birmuncha tekis va aniqlik bilan ajralib turuvchi qat'iy aytilmalar, unison tarzida xor va yakkaxorlar bilan ijro etilib, dunyoviy hayotdan voz kechish va yiroqlashish, ilohiy hayajonni tinglovchilarga baxsh etishga chorlagan.

Rim Papasi qaramog'ida bo'lgan barcha davlat va mamlakatlarning katolik cherkovlari uchun diniy marosimlarni o'tkazishning bir xil an'analari urf bo'ldi.

Barcha xorallar cherkovda nishonlangan kalendar bayramlari va maxsus mavsumiy oy va kun, ma'lum vaqtda aniq belgilangan tartibda ijro etilishi kiritilgan. Til (lotin) va kuylash uslubi (grigoryan) diniy marosimlarning yaxlitligini va diniy ta'limot birligidan barchani voqif qilmog'i zarur edi. Bu borada cherkov hech qanday o'zgarishlarga yo'l qo'ymagan. Biroq ular paydo bo'lgan, chunki uzoq vaqt davomida nota yozuvi bo'lmagani va diniy aytilmalar va qo'shiqlar maxsus ta'lim olgan xonandalar xotirasida saqlanib, faqat og'zaki tarzda o'rgatilganligini bu borada qayd etish lozim.

Kanonlashgan qo'shiqchilik ikkita katta guruhga bo'lingan bo'lib, messa va offitsiyaga taalluqli edi. Yangi kuylarni bastalash Trident katta cherkovi (1545-1563) davrigacha davom etdi, so'ngra bir qator diniy qo'shiqchilik namunalarini, masalan, tropa va sekvensiyalarni ijro etish man qilindi. Tropalar liturgik dramaning tayanchiga aylandi. Cherkov ibodatining marosim matnlari va qo'shiq namunalari maxsus kitoblarni tashkil qildi (Antifonariy, Gradual, Liber usualis).

IX asdan boshlab musiqani pergament qog'ozida maxsus nota yozuvlari vazifasini bajargan belgilar - nevmalar yordamida yozib olinib boshlandi.

Davrlar o'tib, XI asrda italyan musiqachisi Gvido de Aretsso tomonidan amaliyotga kiritilgan nota chiziqlari takomillashtirildi. Bu qadam zamonaviy nota yozuvi borasida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Gvido de Aretsso Benedikt ibodatxonasi ruhoniysi edi. U nota yozuvining islohotchisi bo'lib, to'rt yo'lakli

nota yozuvini amaliyotga kiritdi (zamonaviy nota yozuviga asos solgan deb hisoblash inumkin). Shu bilan birga, u geksexord tizimini nazariy asoslab berdi.

IX asrlargacha katolik cherkovining qo'shiqlari bir ovozli edi.

IX-XIII asrlarda ko'p ovozli shakllar paydo bo'ldi. Bular - organum, diskant, gimel va boshqalar. Biroq XV-XVI asrlar oxirigacha ko'p ovozli qo'shiqchilik bir ovozlikni qayta ishlangan namunasi sifatida qabul qilinardi. Ars antiqua davrining Notr-Dam maktabi amaliyotida o'rta asr ko'p ovozliligining asosiy shakl va janrlari rivoj topdi.

Cherkovda organum, motet, rondel, kondukt, klauzula, goket kabi janrlar rivojlandi. Ars nova davri musiqasida ko'p ovozli messa va izoritmik motet paydo bo'ldi. Messa va motet XV asrdan – XVI asrga qadar Niderland maktabi kompozitorlari ijodida bosh janr vazifasini bajardi. Cherkov ladhari (musiqa pardalari) - cherkov tonlari, amaliyotda Grigoryan ladhari, o'rta asr ladhari deb ham nomlanadi.

Cherkov ladhining tarixiy ildizlari qadimgi yunon ladhari borib taqaladi. Cherkov ladi bu o'rta asr cherkov musiqasining monodik (ya'ni bir ovozli) ladhari tizimidir:

I ton - doriy ladi;

II ton - gipodoriy ladi;

III ton - frigiya ladi;

IV ton - gipofrigiy ladi;

V ton - lidiya ladi;

VI ton - gipolidiy ladi;

VII ton - miksolidiy ladi;

VIII ton - gipomiksolidiy ladi.

Cherkov ladhining asosiy kategoriyalari - finalis (yakuniy ton), ambitus (aytim hajmi), reperkussa (takror etiluvchi ton, psalmodiyalash). Cherkov ladhining har biri o'ziga xos kuy shakliga ega bo'lib, psalmodiya uchun ham xarakterlidir: boshlang'ich (initsiy), o'rta kadans (mediatsiya yoki medianta), yakunlovchi (finalisi yoki terminatsiya). O'rta asr musiqasida cherkov ladhari tashqari,

boshqa ladlar ham mavjud bo'lgan, ammo ular musiqa nazariyasida o'rganilmadi, faqatgina Glareanning "Dodekaxord" risolasida cherkov ladhari tizimi boshqa ladlar bilan to'ldirildi: IX ton - eolij, X ton - gipoeolij, XI ton - ionij, XII ton - gipolonij.

Katolik cherkov G'arbiy Yevropa davlatlari hududida jamiyatning barcha jabhalarini, jumladan, madaniyat va san'atni o'ziga taslim qilganligiga qaramay, musiqa san'atida tadrijiyot (evolyutsiya) jarayonlari davom etilaverishini qayd qilishimiz mumkin. Dunyovij musiqa Xudoga qarshi chiquvchi va shak keltiruvchi san'at sifatida keskin e'tirozlar mo'ljaliga aylandi.

O'rta asr musiqa san'ati yangi voqeliklar bilan yanada boyidi. O'rta asr shaharlari yillar o'tib madaniyat markazlariga aylandi. Yevropa davlatlarida ilk universitetlar ochildi, Bolonya va Parij universitetlari shular jumlasidandir. Sayohat qiluvchi sayyoh musiqachilar haqida asosij maMumotlar IX-XIV asrlar manbalarida keltiriladi.

Sayohat qiluvchi san'atkorlar (jonglyorlar, menestrellar, shpilanlar) turli xil davlatlarda har xil nomga ega bo'lib, saroy musiqa madaniyatining namoyandalari bo'lgan. Ko'p hollarda, saroy lirikasining ilk shakl ko'rinishlari aynan ularning musiqij amaliyotida shakllanib boradi. Sayohat qiluvchilarning o'zi ham aktyor, qo'shiqchi, jo'mavoz, raqqos va bastakor sifatida maydonga chiqadilar. Ular truba, rog, svirel, pan-fleyta, volinka, arfa, krot, rebab, viyela, fidel kabi musiqij cholg'ularda mohirona chalishni bilganlar. Jonglyor va shular kabi artist, akrobat, musiqachilar, raqqoslar o'zining ma'lum madaniy-tarixij an'analariga ega bo'lish ehtimoli bor edi (Qadimij Rim sinkretik san'ati).



XII-XVI asrlarda G'arbiy Yevropaning bir necha davlatlarida trubadurlar<sup>5</sup> musiqij-poetik san'atining badiij ta'siri alohida ahamiyat kasb etdi.

Sarkarda (ritsar)lar doirasida XI asrga kelib iste'dodli sholr va musiqachilar paydo bo'ldi. O'zlarining samimij musiqij-sholrona asarlarida ular go'zallik timsoli bo'lgan ayol nafosatini va

<sup>5</sup> <https://hr.wikipedia.org/wiki/Trubadur>

ularning qalbini zabt etishga harakat qilgan sarkarda (ritsar)lik musobaqalari haqida bayon etuvchi mavzularni ko'targanlar. Fransiyada ularni - trubadur va truverlar deb atashgan bo'lsa, Germaniyada – minizingerlar deb nomlashgan.

Ular qoldirgan ijodning yozma namunalari bir ovozli asarlar ko'rinishida bizgacha saqlanib qolgan. Biroq o'sha davrda bir ovozli yozuv bilan bir qatorda ikki va uch ovozli yozuvlar mavjud bo'lgani ham ma'ium.

Yuqorida ta'riflangan barcha hodisalar XIV asrga kelib shakllangan “Yangi san'at” – “Ars nova<sup>6</sup>” nomi bilan tarixda qolgan hodisaga aylandi (unga qarama-



Список Ars Nova Филиппа де Витри с фрагментами «витрийской» нотной записи

qarshi Ars antique - qadimgi san'at taqqoslanib turgan).

Shu davrga kelib, yetakchi san'atkor va san'at ustalarining nomi xalq orasida tilga olinib, mashhur bo'ladi. Masalan, Italiyada xalq orasida katta obro'-e'tibor qozongan ko'zi ojiz san'atkor – Franchesko Landino, Fransiyada esa - Gilyom de Masho san'ati yuksak baholangan.

Darhaqiqat, bu yangi davr san'ati usluban yorqin, jonli, harakatchan, rang-barang bo'yoqlar va ifoda vositalari bilan ajraluvchi san'atga aylandi. Ars nova G'arbiy Yevropa san'atining eng yuksak davrlaridan biri sanalmish - Uyg'onish yoki Renessans (XIV-XVI asrlar) davrini ochilishiga olib keldi.

Bu davri aynan “Uyg'onish” (Renessans<sup>7</sup>) nomi bilan qayd etilishiga nima sabab bo'lgan?

Avvalo “Uyg'onish” deganda, o'rta asrda jamiyatni mudrab yotgan ongi uyg'onishi, antik davr san'ati va ijtimoiy hayotning qayta jonlanib tiklanishi, kuch-



quvvatga to'lib, o'rta asr zulmatidan ozod bo'lgan yangi davr kelishini namoyon etgan. Uyg'onish davri buyuk jug'rofiy kashfiyotlari bilan dunyo haqida inson

<sup>6</sup> [https://ru.wikipedia.org/wiki/Ars\\_nova](https://ru.wikipedia.org/wiki/Ars_nova)

<sup>7</sup> <https://veryimportantlot.com/ru/news/blog/renessans-epoxa-velikix-imyon>

tasavvurlarini butkul o'zgartirdi. Qadimdan qolib ketgan diniy qoidalardan voz kechish, o'z navbatida, ilm sohasining dadil rivojlanishi va gullashiga, jamiyatda sbakllangan yangi erkin samarali iqtisodiy munosabatlar yangicha ko'rinishda siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy qadriyatlarni rivoj topishiga turtki berdi. Asta-sekin "gumanizm" (humanus - lotinchadan insoniylik) nomi bilan ataluvchi yangi insoniyat tafakkuri shakllandi.

Shunday sharoitda tasviriy san'at, adabiyot va musiqa san'ati ham gurkirab rivoj topdi. Agar o'rta asr musiqa san'atida muallifning shaxsiy uslubi imkon qadar bostirilib, yo'qqa chiqarilgan bo'lsa, bu davrda aksincha, uning timsoli birinchi darajaga ko'tarilib, iqtidorini yangicha nazar bilan baholandi. Ma'lumki, avvallari jamiyatda "rassom", "kompozitor" kabi tushunchalar katta ahamiyat kasb etmagan.

Darhaqiqat, Rafael, Leonardo da Vinchi tasviriy polotnolariga, Mikelandjelo haykallariga e'tibor qaratganimizda, ularda inson va uning qadr-qimmatini alohida bo'rttirilib namoyon qilinganining guvohi bo'lamiz. Djovanni Pyerluidji va Palestrina, Josken Depre, Ioxaness Okegem va Orlando Lasso musiqiy asarlari yuqori, aniq va yuksak insoniy hissiyotlar tizimini aks etuvchi yangi davr tarovatini namoyon etadi.



Ushbu davrda o'ziga hosligi bilan ajraluvchi yangi milliy musiqa maktablari shakllandi. Shular qatorida Niderland (Frankflamand maktabi nomi bilan ham e'tirof etiladi) *polifonik maktabi* - G. Dyufai, I. Okegem, Ya. Obrext, J. Depre, O. Lasso nomi bilan; *italyan milliy maktabi* - Dj. Palestrina, Dj. Gabriyeli; ispan maktabi-K. Morales va T. de Viktorirya; *ingliz maktabi* - U. Byord va T. Talis; *nemis maktabi* - X. L Xasler, L. Zenfl; polyak maktabi – Shamotulli Vatslav, Lvovli Marsin, M. Zelenskiy; chex maktabi - Y. Turnovski, K. Garant kabi kompozitorlar nomi bilan mashhur. Ushbu kompozitorlar ijodida cherkov va dunyoviy musiqiy janrlar, jumladan, messa, motet, madrigal, qo'shiq va turli xil raqslar (pavana) keng rivoj topadi. Dunyoviy va cherkov musiqasida ko'p ovozlarning eng yuksak ko'rinishi - polifoniya yuqori cho'qqilarga qadar ko'tariladi.

**Barokko davri musiqa madaniyati.** XVII asr va XVIII asr boshlari musiqa tarixida katta ziddiyatlar va o'zgarishlar ro'y berishi bilan belgilandi. Fransuz "Quyosh" qiroli Lyudovik XIV ning hukmronlik davri, Angliyada Oliver Kromvel boshchiligidagi burjua inqilobi kapitalizm davrida yangi bosqichni namoyon etdi (1642-1660). Absolyutizmga qarshi chiqqan ijtimoiy harakat (1648-1653) "fronda" nomi bilan mashhur bo'lib, urush davri (1618-1648) o'zining safiga ko'plab Yevropa mamlakatlarni jalb etib, nihoyat, Vestfal tinchligi bilan yakun topdi va Gabsburglar hokimiyatini xonavayron bo'lishini anglatdi.

***Niderland polifonik maktabi namoyondalari.***



**Yakob Obrext**  
*Jacob Obrecht*  
1458-1505



**Yoxannes Okegem**  
*Johannes Ockeghem*  
1425-1497



**Josken Depre**  
*Josquin Desprez*  
1450-1521



**Orlando di Lasso**  
*Orlandus Lassus*  
1532-1594



**Giyom Dyufai**  
*Guillaume Dufay*  
1397-1474

***Italiya milliy musiqa maktabi namoyondalari***



**Djovanni Palestrina**  
*Giovanni Pierluigi da Palestrina*  
1525-1594



**Djovanni Gabriyeli**  
*Giovanni Gabrieli*  
1555-1612

XVII asrda ro'y bergan ijtimoiy notinch voqeliklar badiiy madaniyatda, adabiyot va san'atda o'z aksini topdi. San'atkorlar e'tibori nafaqat jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlar, balki inson, uning ichki olami birinchi o'ringa ko'tarilib, san'at asarlari mavzusiga aylandi.

Ayniqsa, bu "barokko" uslubi deb nom olgan yo'nalishda yorqin ifodasini topdi (italyan tilidan "ajoyib", "g'aroyib" deb izoh etiladi)

Barokko uslubi vaqtincha hokimlikni qo'ldan boy bermagan feodal doiralarda keng gullab-yashnadi. Italiya, Ispaniya, Germaniya mamlakatlarida bu hol kapitalistik munosabatlarni rivojlanishiga turtki bo'ldi.

Adabiyot va san'atda barokko saroy ahlining o'zini yorqin dabdabadorlik bilan burkab, o'zining kuch-qudrati, noziktaabligini baralla ovoza qilishdan iborat bo'lgan. Bu borada katolik va protestant cherkov namoyandalari qo'shgan hissalarini nihoyatda katta. Ammo tashqi ko'r-ko'ronalik tagida ilg'or san'at namoyandalari jamiyatda aks etgan hayajon, noilojsizlikni haqqoniy va ifodaviy yoritib bera olganlar. Hayotiy idrokning yorqin drammatizmi adabiyot, musiqa, tasviriy san'at asarlarida fojiviy mavzularga murojaat qilinishida ko'rinadi. Aynan XVII asr va XVIII asming birinchi yarmida yangi davr san'atida muhim rol o'ynagan yangi janr - operaning rivojlanishi Yevropa mamlakatlarining madaniyatida alohida voqelikka aylandi.

## Richard Vagner ijodi.



**Vilhelm Richard Vagner**<sup>8</sup> (*nem. Wilhelm Richard Wagner, odatda birinchi ismisiz aytiladi – shunchaki Richard Wagner; 22 may, 1813, Leypsig – 13 fevral, 1883, Venetsiya*) – nemis opera bastakori, dirijyor, dramaturg (oʻz operalari librettolarining muallifi), faylasuf, revolyutsiyachi, Yevropaning musiqa madaniyati, ayniqsa nemis opera va simfonik janrlarning rivojlanishiga sezilarli taʼsir koʻrsatgan eng katta opera islohotchisi.

Vagner – Karl Fridrix Vagner (1770-1813) oilasida tugʻilgan. Uning oʻgay otasi, aktyor Lyudvig Geyer (nemis: Ludvig Geyer). Vagner, Sankt-Peterburgda tahsil olgan. Nikolay (1828–1830) va undan keyin Avliyo Tomas maktabida (1830–1831), 1828 yildan u Xristian Gottlieb Myuller boshchiligidagi uygʻunlikni oʻrganishni boshladi, soʻngra Sankt Tomas Teodor Vaynlig cherkovining kantorasi ostida kompozitsiyani bilan shugʻullana boshladi. 1831 yilda u Leyptsig Universitetida musiqa boʻyicha tehsil ola boshladi. 1833-1842 yillarda u Virzburgda ogʻir vaqtni boshidan kechirgan, u yerda Magdeburg teatr xormasteri boʻlib ishlagan (1833), keyin Konigsberg va Rigada musiqiy teatrlarning dirijori boʻlgan (1834-49), keyin Norvegiya, London va Parijda, u yerda "Faust" va "Uchar Gollandiyalik" operasi sessiyani yozgan. 1842 yilda Drezdenda "Rienzi, eng soʻnggi stend" operasi premerasi uning shon-shuhratiga poydevor qoʻydi. Bir yil oʻtgach, u Qirollik Saksoniya sudida sud bandmasteri boʻldi.

Dastlabki asarlari ("Parilar", 1834; "Gollandiyalik uchar", 1841; "Tangeyzer", 1845) da nemis romantik opera (K. M. Veber) anʼanalarini davom ettirgan. "Loengrin" operasida (1848) yangi uslubga burilish namoyon boʻlgan. Keyingi asarlari ("Tristan va Izolda", 1859; "Nibelung uzugi" tetralogiyasi, 1856 – 74; "Parsifal", 1882) da tugal ariya, ansambl, xor va balet sahnalaridan voz kechib, ular oʻrniga erkin shakldagi musiqiy monolog va dialoglarni kiritgan.



<sup>8</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Richard\\_Wagner](https://uz.wikipedia.org/wiki/Richard_Wagner)

Shuningdek, orkestrning musiqiy ifodaviyligiga alohida ahamiyat bergan, uning badiiy vazifalari doirasini kengaytirib, operadagi musiqiy dramatik keskinlikni kuchaytirgan. Richard Vagnerning opera islohoti dunyo kompozitorlari ijodiga ta'sir qilgan.

1849 yilda Vagner Drezden May qo'zg'olonida ishtirok etdi, u qo'zg'olonida davomida anarxizm, populism va nazariyotchilardan biri, ijtimoiy



anarxizmning kelib chiqishi boshida turgan Mixail Aleksandrovich Bakunin<sup>9</sup> (18.05.1814 – 19.06.1876. *Rus mutafakkiri va inqilobchisi Bakuninlar oilasidan*) bilan uchrashdi. 1849 yilgi Drezden qo'zg'olonida qatnashgani uchun 13 yilga surgun qilingan.

Surgundan Tsyurixga qochib ketdi va u yerda “Nibelungning halqasi” tetralogiyasining librettosini, uning dastlabki ikki qismining musiqasini (Reyn Oltin va Valkirie) va “Tristan va Izolda” operasini yozdi.

Vagnerning birinchi turmushi o'xshamadi. U ikkinchi marotaba Vengriyalik bastakor, pianinochi, dirijyor, pedagog va musiqa jamoat arbobi Ferens (Frans) List<sup>10</sup> (*veng. Liszt Ferenc, nem. Franz Liszt 1811-1886*) ning qizi, Germaniyalik dirijyor, pianinochi, o'qituvchi va kompozitor Gans fon Byulov<sup>11</sup> (*nem. Hans Guido Freiherr von Bülow, 1830-1894*) ning sobiq xotini Kosima<sup>12</sup> (*Francesca Gaetana Cosima Liszt, nem. Cosima Wagner, 1837-1930*) xonim bilan turmush quradi.



Haqiqiy sevgi odamlarga qaysi yoshda kelishini hech kim bilmaydi. Buyuk kompozitor Vagner bu ajoyib baxtni yarim asrga to'lganda bilgan.

Bu vaqtga kelib, u oilaning otasi edi va tanlangan Kosima undan 24 yosh kichik edi. Vagner va Kosima sevgisi barchaning og'ziga tushdi, gap-so'zlar anchagina bolaladi, ammo ularning sevgisi barcha qiyinchiliklarni yengib o'tdi.

<sup>9</sup> [https://ru.wikipedia.org/wiki/Бакунин,\\_Михаил\\_Александрович](https://ru.wikipedia.org/wiki/Бакунин,_Михаил_Александрович)

<sup>10</sup> [https://en.wikipedia.org/wiki/Franz\\_Liszt](https://en.wikipedia.org/wiki/Franz_Liszt)

<sup>11</sup> [https://en.wikipedia.org/wiki/Hans\\_von\\_B%C3%BClow](https://en.wikipedia.org/wiki/Hans_von_B%C3%BClow)

<sup>12</sup> [https://en.wikipedia.org/wiki/Cosima\\_Wagner](https://en.wikipedia.org/wiki/Cosima_Wagner)

Kosima bilan tanishish paytida Vagner uylangan, oilali, ning yuragi butunlay Matilda Vesendonk<sup>13</sup> (*nem. Agnes Mathilde Wesendonck Luckemeyer 1828-1902*) ka tegishli edi. Kosimaga bo'lgan munosabati borgan sari avj olib, sevgiga aylandi. Vagner va Kosima o'rtasidagi munosabatlar nafs uchun emas, balki haqiqiy sevgi edi.



Mariya Zalesskaya Vagner haqida ajoyib kitobda shunday yozadi: "Uch yildan ko'proq vaqt davomida Richard va Kosima o'z his-tuyg'ulari bilan qattiq kurash olib borishdi, oila va do'stlik g'oyalariga xiyonat qilishni istamadilar. Bir marta - Matilda Vesendonk bilan bo'lgan munosabatda - Vagner g'olib sifatida bunday kurashdan chiqishga muvaffaq bo'ldi. Endi tuyg'u kuchliroq edi. Ha, va Kosima, Vagnerga muhabbatni yengishga yordam bergan Matildadan farqli ravishda, uning ehtirosiga butunlay bo'ysundi. U o'zini azob chekib, Vagnerni yanada og'riqli tajribalarni boshdan kechirishga majbur qildi. O'sha davrdagi Vagner va Kosimaning yozishmalari har qanday "nazariyalardan" afzalroq: "ularning ikkalasi ham azob-uqubatlardan, gap-so'zlardan qutulish orqali poklanishni edi"<sup>14</sup>.


Vagner hayoti va ijodini o'rgangan tadqiqotchisi Mariya Zalesskaya ta'kidlaganidek, Vagnerga xos bo'lgan "kamchiliklar majmuasi" ga kelsak, u kompozitor ko'nglini faqat turmushga chiqqan ayollar jalb qiladi degan fikrni beradi.

Ma'rifatchilik davri g'oyalari ta'siri ostida kamol topgan Wolfgang Amadey Motsartning ijodi XVIII asrning badiiy cho'qqilaridan biri. Wolfgang Amadey Motsart uslubida klassik tizimga xos ratsionalizm mezonlari bilan birga sentimentalizm xususiyatlari o'zaro tutashgan. Keng qamrovli musiqiy-badiiy obrazlar dunyosida jo'shqinlik va chuqur ehtiros, iroda va matonat, ayni paytda nafislik va mayinlik xususiyatlari keng o'rin olgan. Uning shodlik, xushchaqchaq tuyg'ularga boy, hayotbaxsh ijodida fojia mavzulari, dard-alam kayfiyatlari ham chuqur ifoda topgan.

Eng yirik musiqa ustalari o'rtasida Wolfgang Amadey Motsart o'z ijodining serqatlamligi va kengligi bilan ajralib turadi. Wolfgang Amadey Motsart deyarli barcha musiqa janrlariga murojaat etib, 600 ga yaqin asar yaratgan, musiqa tarixida go'zallik va mukammal garmoniya timsoli sifatida o'z nomini qoldirgan. Wolfgang Amadey Motsart operaning yangi turlarini yaratgan. „Figaroning uylanishi“ opera-komediya (1786), „Don Juan“ opera-dramasi (1787), „Seholi fleyta“ milliy opera-ertagi (1791) (jami 17 ta) jahon musiqali teatri xazinasining durdonalariga aylangan. Bulardan „Zaida“ (1780), „Haramdan olib qochish“ (1782), „Qohira g'ozini“ (1783) kabi operalarida Sharq mavzulariga murojaat qilgan. Wolfgang

---

<sup>43</sup> [https://en.wikipedia.org/wiki/Accademia\\_Filarmonica\\_di\\_Bologna](https://en.wikipedia.org/wiki/Accademia_Filarmonica_di_Bologna)

Amadey Motsart ijodida simfoniya (50 ga yaqin), cholgʻu konsert (40 ga yaqin), torli kvartet (23 ta), fortepiano sonatasi (21 ta) rivoj topdi. Volfgang Amadey Motsart, shuningdek, turli cholgʻu asarlar, kantata, messa, kamer ansambllar, qoʻshiqlar muallifi. Uning soʻnggi asari – „Rekviyem“ (1791, shogirdi F. Zyusmayer tugallagan) mazkur janrning mumtoz namunasiga aylangan. Zalsburgda xalqaro „Motsarteum“ (tarkibida ilmiy, oʻquv, konsert boʻlimlari mavjud) muassasasi faoliyat koʻrsatmoqda (1880-yildan)

Buyuk Avstriya bastakori Vena klassik maktabining vakili boʻlgan Volfgang Amadey Motsart 1791 yil 5-dekabrda 45 yoshida Venada vafot etdi.

### **Lyudvig van Betxoven ijodi.**



Lyudvig van Betxoven (*Ludwig van Beethoven*, 1770-yil 17-dekabr, Bonn, Germaniya – 1827-yil 26-mart Vena, Avstriya) – buyuk olmon bastakori, dirijyor va pianist<sup>44</sup>.

Lyudvig van Betxoven – nemis kompozitori, pianinochi va dirijyor. Vena klassik maktabining vakili. 1792-yilda Venaga koʻchgan va tez orada oʻzining erkin va taʼsirchan, yangi ijro uslubi bilan isteʼdodli pianinochi, badihachi-improvizator sifatida tanilgan. Venada (1795 – 1800) yaratgan fortepiano konsertlari, 8-chi „Patetik“ fortepiano sonatasi, kvartetlari, 1-chi simfoniyasi, „Prometeyning yaratmalari“ baletidayoq Betxovenga xos, Buyuk Fransuz inqilobi gʻoyalari taʼsiri ostida shakllangan ijodiy uslubi koʻzga tashlandi. 27 yoshidan qulogʻi ogʻirlashib, keyinchalik butunlay kar bulib qolsada, ichki uquv, his-tuygʻu bilan birtalay asarlar yaratdi, dirijyorlik qildi. Betxoven ijodi, ayniqsa 1801 – 1812 yillarda kamol topdi. Qahramonlik va demokratizm ruxi bilan yugʻrilgan 3-chi („Qahramonnoma“), 5-chi simfoniylari, „Fidelio“ operasi, I. Gyotening „Egmont“ fojiasiga yozgan musiqasi, „Appasionata“ fortepiano sonatasi, skripka va fortepiano uchun „Kreyserov“ sonatasi mashhur. Chuqur fojiaiylik va adolat tantanasiga ishonch ruxi bilan sugʻorilgan 9-chi simfoniya Betxoven ijodining choʻqqisidir. Soʻnggi asarlari (28 – 32 fortepiano sonatalari, 12

<sup>44</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Lyudvig\\_van\\_Betxoven](https://uz.wikipedia.org/wiki/Lyudvig_van_Betxoven)

– 16 kvartetlari, bagatellar)da kompozitorning yangi ifoda vositalari topishga intilishi seziladi.

Musiqiy qahramonlik uslubini yaratgan Lyudvig van Betxoven simfonik musiqa tafakkuri (qarang Simfonizm) ko‘lamini nihoyatda kengaytirgan, kamercholg‘u va vokal musiqasi, konsert janrlarining g‘oyaviy mazmunini teranlashtirgan, mavjud musiqa shakllari va janrlarini isloh etgan.

Lyudvig van Betxoven o‘z ijodida turli (ingliz, venger, italyan, nemis, polyak, rus, ukrain) xalq kuylarini qayta ishlagan, Sharq mavzulariga murojaat qilgan (Sa‘diy she‘rlariga 2 kanon). Betxovenning 5, 7, 8, 9-chi simfoniyalari, fortepiano va skripka konsertlari, birtalay fortepiano va skripka sonatalari, kamer ansambl va boshqa asarlari O‘zbekistonda ijro etiladi.

*Endi kitobxon uchun mavzuni to‘liq ochib bersak.*

Bonning qadimiy qismidagi Songasse ko‘chasida Kyolin Skiyning saroy sozandalari yashar edi. Knyaz kapellasining kapelmestri Lui van Betxovenning oilasi ham shu yerda yashardi. Lui zovor Betxoven izzat – ikromga sazovor bo‘lgan hurmarli sozanda uning o‘g‘li Logarn esa kapellada ashulachilik qiladi. 1770 – yili 16 - dekabrda shu xonadonda Logarnning to‘ng‘ich o‘g‘li kapelmestr Luining nevarasi Luidvid van Betxoven oilasida bola tug‘ilgach Bongassedada bir qancha yillar tinch – totuv baxtiyor hayot kechirdi.

Keksa kapelmestr o‘g‘liga doimo yordam berib kelini va nevarasidan tez – tez habar olib turardi. U nevarasini cho‘qintirib unga buvasi sharifiga Lui (nemischa Lyudvig) deb ism qo‘ydi. Lui Betxoven o‘zi cho‘qintirgan nevarasini juda ham yahshi ko‘rardi. Lyudvigni otasiga emas, balki buvasiga o‘xshashini hamma e‘tibor yetardi. Lyudvig ham buvasini juda yahshi ko‘rardi va u bilan faxrlanardi.

Keksa kapelmestr hayotlik davrida Logarnning oilasi muhtojlik sezmedi. Bu muhtojlik Lui Betxoven vafotidan keyin boshlandi. Buyumlarni va faqirona tor kulbalarini sotib yuborgach, uzoqroq tor ko‘chadagi uylardan biriga ko‘chib o‘tishga to‘g‘ri keldi. Betxovenlar oilasi o‘rnashgan uy bo‘lkachi Fisherga qarashli

edi. Kopelmeystri Lui Betxoven shu uyda ko'p yillar yashagandi. Shu yerda Logarn ham o'sib ulg'aygandi.

Fisher Lyudvigdan bir oz yoshroq o'g'li keyinchalik o'z ustaliklarini yozdi, bu Betxovenning yoshligi haqidagi ustalikdir. Orasi Lyudvigning ajoyib musiqa iste'dodiga e'tibor berganda u hali to'rt yoshga ham to'lmagan edi. Logarn xorda ashula aytishga yoki konsertga tayyorlanayotgan kezlari, Lyudvigning diqqat bilan tinglab turishni hech kim ko'rmayapti deb o'ylab klavisinda turli kuylarni cholib ko'rishga harakat qilishini sezardi.

Logarn Lyudvigdagi istedodga ishonch uni tez orada "Mo'jizali" - "Sexrli bola" qilib tayyorlash mumkinligini va bir ikki yil ichida uni atoqli musiqa homiylariga ko'rsatishga qaror qildi.

Logarn bundan o'n to'rt yil ilgari besh yoshli Motsart o'z oilasiga davlat va shuhrat keltirganini juda yahshi bilardi. Bundan tashqari Lyudvig ham buvasi, otasi kabi kuyfyurs kapellasiga iloji boricha tezroq joylashi pul topishi kerak edi.

Musiqa mashg'ulotlari boshlandi. Dastlab Lyudvigni otasining klavisin cholishni o'rgata boshlashdi. U kuniga besh sakkiz soatlab cholishga majbur etardi. Logarn Lyudvigning endigina besh yoshga kirganligi haqida o'ylashni istamas, shuncha soat skameykada tik turish oson emasligini o'ylamas edi. Lyudvig skamekada tik turgandagina zo'r-bazor klavesinda zerikarli mashqlarni chalaverishi ba'zan joniga tegib ketardi. Logarning o'zi pedagog emas edi. Logarning dars berish haqidagi tasavvuri ham o'ziga xos edi. Lyudvig yetarli darajada e'tibor bo'lmasdi, u o'g'lining musiqa asarlarini ijro etayotgandagi xatolarini eshitganida yuziga shapatilab sochlaridan tortar edi.

Keyinchalik klavesin cholish mashg'ulotlariga organ skripka va alt cholishni o'rgatish ham qo'shiladi. Bularni alohida o'qituvchi o'rgatardi. Otasi bu mashg'ulotlarni bir minut ham e'tibordan chetda qoldirmasdi. Ayniqsa Lyudvig bilan bir kapella sozandasi - otasining oshnasi mashg'ulotlar o'tkazganda unga og'ir bo'lardi, o'shanda Lyudvid endigina to'qqiz yoshga qadam qo'ygan edi. U klaversining oldiga kelganda yoki qo'lga skripka olganda darsni o'rgana olmasligini bilar va buning o'rniga tasavvurida paydo bo'layotgan kuylarni

cholgisi kelar edi. Biroq otasi Lyudvigning o'zi yaratayotgan musiqalarni cholishga intilishini telbalik va sho'xlik deb hisoblar, shunday bekorchi ishlarga vaqt sarflashga yo'l qo'ymas edi.

Lyudvig sakkiz yoshida klaversni juda yahshi chomadigan bo'lgach Logarn ushbu "Mo'jiza" ni ommaga ko'rsatishga qaror qildi. U Lyudvigni Kyolinga olib bordi, bundan tashqari u onasi bilan birga Gallandiyaga – Rotterdamba ham borgan edi. Biroq bu konsertlar hech qanday mablag' va shuhrat keltirmasdi. Aftidan Logarn kerakli kishilar bilan aloqada bo'lish va muomala qilishni ham bilmasdi.

Lyudvig qaysarligi ustida "mo'jiza"ga ham to'g'ri kelmas edi. Lyudvig o'n yoshida bir necha cholg'u asboblarini chomadigan bo'ladi. O'sha davr sa'natida turli chog'lu asboblarida chalish odat bo'lgan bo'lsa ham ko'pgina katta yahshi sozandalar buni eplasha olmasdi. Bir kuni o'qituvchisi ibodatxonada zarurat yuzasidan organ chalolmay qolganda Lyudvig unung o'rniga ijro etgandi.

Otasi "mo'jiza" bola yetishtirish orzusidan butunlay vos kechganda Lyudvig o'n ikki yoshga qadam qo'ygan edi.

Bu yoshgacha Lyudvigning mashg'ulotlari doim qattiq qo'llik bilan nazoratda bo'linar edi. Bu qattiq qo'llikdan qutulgan Lyudvig improvizitsiyaga berildi. Lyudvig endi o'zining ko'pgina vaqtini fortepiyanada fantaziyalar yaratishga sarflaydi. Biroq ularni yozib bormadi.

1782 – yili Lyudvigning hayotida muhim bir voqea ro'y beradi. U yaqindagina Bonrga kelgan saroy organisti va drijori kompozitor Gottlov Neefedan dars ola boshladi. Neefe Lyudvig bilan musiqachilardan keskin farq qilardi. Go'yo taqdir o'sha davrning eng ilg'or va ilmi kishilaridan bo'lgan bu ajoyib insonni Borng – Betxoven bilan uchrashishga atayin yuborgandek edi.

Lyudvig sozandalar orasida o'sdi. U kapelaga operalarga tez – tez borib turdi, yoshligidanoq o'zi chala boshladi. U Neefe o'tkazgan mashg'ulotlardan oldinoq ko'pgina klassik musiqalarni eshitgan edi. Ammo Lyudvig buyuk nemis klassiklarining asarlarini faqat Neefe rahbarligidagina o'rgana bo'shladi. Bular uning keksa zamondoshlari Gaydn, Motsart, Flipp Emanuel Bax, Glyuk va Georg Fridrix Gendel asarlaridan iborat edi.

Lyudvig opera teatrida vaqtincha pianist bo'lib ishladi, ashulachilar bilan ashulalar o'rgandi va opera spektakllarini repetitsiya qilish vaqtida ularga jo'r bo'lib turdi. Lyudvig ikki yildan so'ng ya'ni o'n to'rt yoshidan boshlab kapellarda maosh olib ishlay boshladi. O'n olti yoshida Lyudvig jamoasi Neefening yordamisiz ham Bornlik artistokratlar va ziyolilar orasida tanildi. Uni musiqa kechalariga taklif etishar va u o'zining importatsiya sa'nati bilan hammani hayratda qoldirar edi. Ko'pgina oilalar unga musiqadan dars berishni taklif qilishgan.

Lyudvig Motsart bilan tanishib undan laozal bir nechta dars olishni orzu qilardi. Lyudvig Motsartni juda ham ulug'lar unung zo'r talantiga tan berardi.

Lyudvig 1787 – yil bahorda Venaga jo'naydi. Lyudvig Motsartni uyida o'rtoqlarining orasida uchratdi. Motsart uni sovuqqina qarshi oldi. Uning oldiga ko'pincha is'tedodsiz bo'lishiga qaramay o'zini katta musiqachi deb hisoblaydigan yosh oliftalar kelib turishardi. Motsart unga kuy berdi. Ulug' ustozning ishtirokidan ruhlangan Lyudvig kuyni juda ajoyib ijro etdi, avval hech qachon bunchalik maxorat bilan chalmagan edi. Motsart Betxovenning chalishini ko'rib aniqrig'i his etib turardi. U borgan sari diqqat bilan berilib tinglar ekan oxiri do'stlariga Lyudvigni ko'rsatib “Mana bunga e'tibor bering, bu butun jahonni lol qoldiradi!”deb xitob qilardi.

Endi Lyudvigning eng muqaddas tuyg'ulari amalga oshdi. Motsart uni eshitib unga tan beribgina qolmay balki u bilan mashg'ulotlar o'tkazishga rozi bo'ldi. Lyudvig Bornga qaytib ketish haqida hali o'ylamasdi ham. Keyin keyinchalik onasining sog'ligi yomonlashganligi uchun tezda Venadan jo'nab ketadi. Lyudvig besh yildan so'ng Venaga borganida Motsart vafot etgandi. U bor yo'g'i o'ttiz olti yil yashab 1791 – yilda vafot etgandi. Lyudvig 1789 yil may oyida Meefening maslahati bo'yicha Born Universitetining falsafa fakultetiga o'qishga kirdi. Universitetida u hammasi bo'lib bir yil o'qidi. O'qishni nima sababli to'xtatib qo'yganligi haligacha noma'lum bo'lib qolmoqda. Aftidan uning vaqti va kuchi yetmaganligidan bo'lsa kerak chunki bu paytlari u ko'p dars berar xizmat joyida kamermuzikus vazifasiga tayinlangan edi.



Betxoven Venaga 1792 yili noyabr o'rtalarida keldi. Betxoven darxol Vena aristokratlarining musiqa saloniga qabul qilindi va ularning hurmatiga sazovor bo'ldi. Bunda graf Val'ishteynning tavsiyasi yordam berdi. Betxoven biografiyalaridan birining aytilishicha van Betxoven ismidagi "van" qo'shimchasi ham hatto rol o'ynagan.

Lyudvig Venaga kelgandan keyin ko'p o'tmay Gaydn huzuriga bordi. Maestro uni juda samimiy qabul qildi. Gaydn bunday ahvoldagi musiqachilarda pul bo'lmasligini tushunib u darslarga to'lanadigan har qancha haqdan voz kechdi. Betxoven Gaydnda ikki yilga yaqin shug'ullandi. 1795 yil Betxovenga ko'pgina quvonchli voqealar olib keladi. Bu yilda Vena uni kompozitor sifatida tanitdi. Bunda uning uchta fortepiano triosi (skripka, vionelchel va fortepiano uchun) katta ro'l o'ynadi. Bu asarlarni mashxur nashryotchi Artariya nashr qilgandi. Betxoven o'z triosini Londondagi eng yahshi musiqachilar yuqori baholanganlarini tez orada eshitdi. Betxoven 1796 yili boshida Pragaga jo'naydi. Pragada bergan konsertlari katta muvaffaqiyat bilan o'tdi. U italyan tilida ovoz va orkestr uchun ariya va chembolo va mandalina uchun bir qator pesalar ijod qildi.

Betxoven Pragadan so'ng Germaniya janubiga – Nyuberg va Bremenga jo'nadi. Betxovenning nomi kompozitor sifatida borgan sari mashhur bo'la bordi. Bazi musiqachilar Betxoven Gaydn va Motsart ishlarini davom ettiradi deyishardi. Betxoven kompozitor va mohir musiqachi sifatida shuhrati o'quvchilarni o'ziga jalb etdi. Ularning ba'zi birlari keyinchalik mashhur musiqachi bo'lib yetishadi. 1800 yili boshqa ma'lumotlarga qaraganda 1801 yili Betxovenning yangi do'stlaridan biri Amenda va Vegler undan xat oldilar. Betxoven xatida eng qimmatli a'zoi eshitish qobiliyati pasayotgani haqida ma'lum qiladi.

Betxoven besh yil ichida (1796 – 1800) juda ko'p asar yozdi. Forteplano uchun to'qqizta sonata, forteplano va skripka uchun daslabki besh sonata (1798 – 1800) orkestr va forteplano uchun uchta konsert (1795 – 1798 va 1800) oltita kamonli kvartet 18 – musiqa asari va Birinchi simfoniyasi (1800) shular jumlasidan hisoblanadi.

Bu asarlarning ko'pchiligida inson his tuyg'ulari haqida insonning umidsizlikni yengishi haqidagi fikr ilgari suriladi. Bu asarlarda fikr ilgari g'oyalarni insoniyat taqdiri bilan bog'liq bo'lsa buyuk kompozitorning ovozi aniq yangrab turadi. Fortepiano sonatalarining har biri bir dunyo tafakkur va his obraz va kayfiyatlardan iborat. Goho qo'qqisdan shamol bo'rondan ham kuchli bo'lgani chaqmoq chalib momaqaldiraq guldiragani kabi birinchi sonataning jaranglashida biz bir qator sonatalardagi kuchli stixigani his etamiz. Ikkinchi qismida esa quyoshli bahor kunlarining shodiyonasini sezamiz. Beshinchi sonata o'zidagi g'azabkor isyonning kuchayishi va qayg'u zorlanish tuyg'ulari bilan boshqalardan keskin ajrab turadi. Qisqa musiqa jumalari otashin ixcham inson nuqtaga o'xshab ketadi.

Betxoven 1801 yil fortepiano va skripka uchun quvonchli bahor nafasi bilan sug'orilgan beshincha sonatasini yozdi. Fortepiano uchun o'n uchinchi sonatasini yozadi. Buning kuchli jo'shqin quvonchi birinchi marta bu taxlitda tasvirlandi. Betxoven o'sha yilning o'zida fortepiano uchun o'n beshinchi sonatani ijod qildi: u eshituvchi tasavvurida osoyishta qishloq tabiati manzarasini hosil etadi. Buni "Postorol" deb ataydilar bundan keyin "oltita qishloq raqsi" keladi. Betxoven musiqa qudrati ulug'vorligi va go'zalligi 1803 – 1804 yillardagi asarlarida birinchi bor erishdi. Bular: uchinchi ("Qahramonlik") simfoniya fortepiyana uchun yozilgan "Avrora" va "Apposionata" deb ataluvchi ikkita sonata hamda skripka va fortepiana uchun yozilgan "Kreytser sonatasi" edi. U 1810 yilda Gyotening nider landlarning 16 – asrdagi ispan saltanatiga qarshi olib borgan qahrmonlik kurashlariga bag'ishlangan "Egmond" tragediyasiga musiqa yozdi Betxoven teatr zakasi bilan bir trgediyaning verturiyasini dovyuraklik, qahramonlik ko'rsatish orzusida yurgan Egmont sevgilisi Klerxening ikkita ariyasini to'rtta antarktini Klarxen o'ladigan sahnani Egmont o'limidan oldin qamahhonada aytadigan monologini yozdi. Egmont bu monologida halqni qo'lga qurol olib yaramas zolimlarga qarshi kurash chiqishga chaqiradi. Musiqaning oxirigi qismidagi "G'alaba simfoniyasi" vertyuraning xotimasi hisoblanadi. Betxoven 1823 – yili tantanali messa 1824 – 1826 yillari oxirgi beshta kvartetini

yaratdi. Betxoven ijodining so'ngida yaratdi. Betxoven ijodining so'ngida yaratilgan bu asarlar fikr va tuyg'uga boyligi chuqur mazmuni bilan ajralib turadi. Bularning orasida ham yumorga to'la hazil mutoyibalar uchraydi. Fortepiana uchun yozilgan "yarim tiyin deb fig'oni falak bo'lmoq" deb ataladigan rando shunday asardir.

Betxovening eng yirik asari ijodining xotimasi To'qqizinchi simfoniya bo'ldi. Bu Betxovening hajm jihatdan katta obrazlari jihatidan juda boy simfoniyaasidir. U inson taqdiri haqidagi fikrlar bilan sug'orilgan insonning ozodlikni qo'lga kiritishga uqubat chekishlari shodlikka olib borishga kurash g'alaba bilan tugashiga ishonch o'z ifodasini topgan. Uchinchi simfoniyaasidagi ulug'vor epos to'qqizinchi simfoniyaasida yangi kuchga erishdi. Bundagi qayg'u o'z salobati va ta'siri jihatidan " Apposiodagi" fikr okean singari cheksiz uchinchi bilan ham tenglashtirib bo'lmaydi. Uning finali ham misli ko'rilmagan darajada ulug'vordir. Unda faqat orkestrgina emas balki solistlar ham ishtirok etadi. Unda shillerning "shodlikka" odasidagi ilhom to'la so'zlari yangraydi.

Bo'lajak xor kuyining dastlabki varianti Betxovening yoshlikda yozgan "Oshiq mashuqlar" qo'shig'ida yaratilgan edi. Keyinchalik bu kuy fortepiyano xor va orkestr uchun yozilgan Fantaziyaasida ko'rindi. Yillar pozitsiyaasidagi obrazlar Betxovenninig qalbida chuqur iz qoldirdi. Bu she'rlardaagi inson va insoniyatda bo'lgan qizg'in muhabbat uning bahti uchun kurashish unga bo'lgan ishonch g'oyalari bilan Betxovenga yaqin edi. Shodlik temasi dastlab past tonlarda asta – sekin so'nga butun orkestr bilan yangraydi. Musiqa orasida tantanali so'zlar ham eshitiladi. Bu tinchlik va shodlik simfoniyaasisi millionlarni birlashishga chaqirish bilan tugaydi. To'qqizinchi simfoniyaasisi birinchi marta 1824 yili yettinchi mayida ijro etildi. "Muvoffaqiyat zo'r tantana olqishlarga to'la bo'ladi. Betxoven paydo bo'lganda ya'ni besh marta guldros qarsaklar sadosi ostida olqishladilar, o'sha paytlari imperator ham faqat uch marta guldros qarsak bilan olqishlanar edi. Olqishni to'htatish uchun palitsiyaaning aralashuvi lozim bo'ldi. Simfoniyaasisi tinglovchilarda kuchli hayajon paydo qildi. Ko'pchilik yig'lab yubordi. Biroq muvaffaqiyat bir lahzali bo'ladi va hech qanday amaliy natija bermadi. Konsert

Betxovenga hech narsa keltirmaydi. Uning o'g'ir moddiy ahvoli hech qanday o'zgarish ro'y bermadi. U yana o'shanday qashshoq kasalmandligicha qolaverdi. (Romen Rollan)

Betxoven to'qqizinchi simfoniya yaratilishidan avvalgi 1822 – 1823 yillar hatto barcha og'ir yillarga qaraganda ham juda qiyin bo'lgandi.

Betxoven 1827 – yilning 26-martida olamdan o'tdi. U kunduzgi momaqaldiroq paytida vafot etdi.

### **Frans Peter Shubert ijodi.**



Frans Peter Shubert (31-yanvar 1797, Lixtental – 19-noyabr 1828, Vena) – avstriyalik kompozitor, musiqiy romantizmning ilk yirik namoyandalaridan<sup>45</sup>.

Frans Peter Shubert qo'shiq (romans), simfoniya va fortepiano miniatyuralarining yangi romantik turini yaratgan. Oddiy kishilar his-tuyg'ularini aks etgan, chuqur lirizm bilan sug'orilgan Frans Peter Shubert ijodi badiiy obrazlar samimiyligi, ifoda vositalari soddaligi, xalq va ommaviy janrlar (raqs, qo'shiq)ga yaqinligi, musiqa tili ohangdorligi bilan ajralib turadi. Deyarli barcha janrlarga murojaat qilgan Frans Peter Shubert qo'shiq (romans) janriga alohida ahamiyat bergan: 600 dan ortiq qo'shiq, shu jumladan, Gyote, Shiller, Geyne she'rlariga musiqa, Myuller asarlari asosida „Go'zal tegirmonchi qiz“, „Qish yo'li“ turkumlari.

Frans Peter Shubert, shuningdek, operalar, simfoniylar, kamer ansambllar („Forel“ nomli fortepiano kvinteti, 1819-yil, 14 torli kvarteti, trio, kvintet), fortepiano asarlari (sonatalar, valslar, ekspromtlar, „Darbadar“ fantaziyasi, 1822-yil) va boshqalar yaratgan. So'nggi asarlarida dramatik, hatto fojiviy mavzular ko'proq o'rin olgan. 9-chi („Katta“) simfoniyasida (1828-yil) xalq epik obrazlari tarannum etilgan.

*Endi mavzuni to'liqroq yoritsak.*

<sup>45</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Frans\\_Shubert](https://uz.wikipedia.org/wiki/Frans_Shubert)

Shubert hammasi bo'lib o'ttiz bir yilgina yashagan xolos. U hayotiy muvaffaqiyatsizliklar iskanjasida, jismonan va ma'naviy jihatdan qiynalgan holda vafot etgan. Uning to'qqizta simfoniyasidan birortasi ham tirikligida ijro etilgan emas. Olti yuzta qo'shig'idan ikki yuztasi, fortepiano uchun yozilgan yigirmaga yaqin sonatasidan faqat uchtasigina nashr etilgan edi. O'zini o'rab turgan hayotidan qoniqmasligiga ko'ra Shubert yolg'iz emas edi. Jamiyatning eng yaxshi kishilariga xos bo'lgan qoniqmaslik va e'tiroz san'atdagi yangi oqimda o'z ifodasini topdi. Kompozitor – romantiklardan biri edi. Betxovendan farqli ravishda Shubert san'atkor sifatida inqilobiy qo'zg'olonlar davrida emas, balki ijtimoiy-siyosiy reaksiyalar davrida yashab ijod etdi. Betxoven musiqasidagi buyuklik va qudrat, inqilobiy pafos va falsafiy teranlikka Shubert lirik miniatyuralarni, xalq hayoti manzaralarini qarshi qo'yadi. Shubert venalik birinchi kompozitor - romantik edi. Shubert san'ati xalq turmushini kuylabgina qolmasdan, ko'pincha o'sha bevosita muhitda tug'ilgan ham edi. Venalik romantikning dahosi aynan xalqona maishiy janrlarda namoyon bo'ldi.

Frans Shubert 1797 yil 31-ysnvarda Vena yaqinidagi Lixtental degan joyda dunyoga kelgan. Otasi maktab o'qituvchisi bo'lib, dehqon oilasidan kelib chiqqan edi. Onasi esa chilangarning qizi bo'lgan. Oilada musiqani sevishardi, doimiy ravishda musiqa oqshomlarini tashkil etib turishardi. Otasi violonchel, akalari turli xil musiqa cholg'ularini musiqiy asarlar ijro etishgan. Yosh Fransdagi musiqiy qobiliyatni sezgan ota va akasi - Ignats unga skripka va fortepiano chalishni o'rgatishadi. Tez orada bolakay alt partiyalari ijrosi bilan oilaviy torli asboblarning kvartetida ishtirok eta boshlaydi. Fransning go'zal va yoqimli tovushi ham bor edi. U cherkov xoriga qatnashar, u yerda murakkab yakkaxon partiyalarni ijro etar edi. Ota o'gilning muvaffaqiyatlaridan xursand bo'lardi.

Frans 11 yoshga to'lganda uni konvikt - cherkov qo'shiqchilarini tayyorlash maktabiga berishadi. O'quv yurtidagi sharoit boladagi musiqiy qobiliyatning rivojlanishi uchun qo'l keldi. Maktab o'quvchilari orkestrida u birinchi skripkachilar guruhida chalar, gohida esa dirijor vazifasini ham bajarar edi.

Orkestrning repertuari juda ham xilma-xil edi. Shubert turli janrlardagi simfonik asarlar (simfoniya, uvertyuralar), kvartetlar, vokal asarlari bilan tanishadi. U do'stlariga Motsartning sol minor simfoniya hayajonga solganini e'tirof qilgan. Unga Betxovenning musiqasi yuksak namuna bo'lgan edi. O'sha yillarning o'zidayoq Shubert ijod qilishni boshlagan edi. Uning dastlabki asarlari - fortepiano uchun fantaziya va bir qatorli qo'shiqlar bo'lgan.

Yosh kompozitor ko'p ijod qilar, ularni zavq bilan berilib yaratar, ko'pincha izlanish jarayoni maktabdagi boshqa o'quv fanlari hisobiga bo'lardi.



Boladagi favqulodda qobiliyat saroy kompozitori Salyerining e'tiborini tortadi. Uning qo'lida Shubert bir yil davomida qo'shimch shug'ullanadi. Vaqt o'tishi bilan Fransdagi musiqiy qobiliyatning shiddat bilan rivojlanib borishi otasini ko'proq bezovta qila boshlaydi. Hatto butun dunyoga mashhur bo'lgan musiqachilarning ijodiy yo'llari juda qiyin kechganligini yaxshi bilgan ota bolaning bunday taqdirga duchor bo'lishdan asrab qolmoqchi edi.

Musiqaga bilan haddan tashqari ko'p mashg'ul bo'lishga nisbatan jazo tariqasida u o'g'lining bayram kunlarida ham uyga kelishini ta'qiqlab qo'yadi. Biroq hech qanday ta'qiqlar boladagi iste'dodning rivojiga tosiq bo'la olmasdi. Shubert konvikt bilan aloqani uzishga, zerikarli va keraksiz foydasiz darsliklardan qutilishga, insonning qalbi va aqliga ta'sir qilmaydigan qoidalarni unutishga, erkinlikka chiqishga qaror qiladi. U butunlay o'zini musiqaga bag'ishlamoqchi, faqat u bilan yashashga, faqat va faqat shuning uchun yashashga intiladi.

1813 yil 28 oktyabrda u o'zining birinchi Re-major simfoniya yarataadi. Shubert partituraning oxirgi sahifasiga shunday so'zlarni yozib qo'ygan edi: "Xotima va tugatish". U simfoniyaning xotimasini hamda konviktning tugallanganligini anglatardi. Uch yil u o'qituvchisiga yordamchi bo'lib ishladi, bolalarga savod va boshqa dastlabki o'quv predmetlaridan dars berdi. Shunga qaramay Shubertning musiqaga havasi, ijod qilish istagi tobora kuchayib borar edi. Uning yashovchan ijodkorlik tabiatiga hayrat bilan boqishga to'g'ri keladi. Ayni mana shu maktab surguni yillarida, 1814 yildan 1817 yilgacha, hamma narsa unga

qarshi qaratilganday ko'rinsa-da, u hayratlanarli darajadagi ko'p asarlarini yaratadi. Faqat 1815 yilning o'zidagina Shubert 144 qo'shiq, 4 opera, 2 simfoniya, 2 messa, 2 fortepiano sonatasi, torli kvartet yaratadi.

Otasining o'g'lidan kam bo'lsa-da barqaror oylikka ega bo'lgan o'qituvchi qilish orzusi chipakka chiqadi. Yosh kompozitor o'zini musiqaga bag'ishlash haqida uzil-kesil qaror qabul qildi hamda maktabdagi o'qituvchilik ishini tashladi. Shubertning shundan keyingi unchalik uzoq bo'lmagan hayoti ijodiy jasoratlardangina iborat bo'ldi. Katta moddiy qiyinchiliklarni boshidan kechirishiga qaramay u tinimsiz ijod qilar, bir asar ketidan ikkinchisini yaratardi.



Moddiy qiyinchiliklar baxtga qarshi, uning yaxshi ko'rgan qiziga uylanishiga monelik qiladi. Tereza Grob cherkov xorida qo'shiq aytardi. Dastlabki repetitsiyadan keyin Shubert uni payqab qoladi, vaholanki bu qiz boshqalardan keskin ajralib turmas edi. Musiqa boshlanishi bilanoq Terezaning rangsiz yuzlari jonlanib ketardi. Shubert taqdir nayranglariga qanchalik ko'nikmasin, taqdirning o'ziga nisbatan bunchalik shafqatsiz bo'lishini tasavvur ham qilmagani edi. U o'z kundaliklarida: - "Haqiqiy do'stni topgan kishi bahtlidir. Agar bu do'stni o'z xotini qiyofasida topgin kishi yanada baxtliroqdir", deb yozgan edi. Afsuski, uning orzulari amalga oshmadi.

Shubertning vokal lirikasida qo'shiq turkumlari asosiy o'rin tutadi. Vokal musiqasining bu janrida Shubertdan oldin ijod qilgan san'atkor Betxoven bo'lib, u 1816 yilda "Olisdagi mahbubaga" turkumini yaratgan edi. Turkum vokal shaklining paydo bo'lishi romantik musiqadagi o'z-o'zini namoyon qilish va avtobiografiyaga moyil bo'lgan asosiy belgini ko'rsatuvchi hodisadir.

Asta-sekin, Frans Shubertning do'stlari orasida "shubertiadalar" an'anasi shakllandi - bastakor bilan muntazam uchrashuvlar. Har bir a'zosi biron bir badiiy iste'dodga ega bo'lishi kerak bo'lgan ijodiy yoshlar guruhi birlashtirildi (U nima qilishi mumkin? Har bir kelganlar bu savol bilan kutib olindi). Ko'pincha "Shubertiadalar" ishtirokchilari o'z davralari boshchiligidagi yorqin qo'shiqlarning

hammualliflari (*I. Mayrhofer, I. Zenn, F. Grilparzer*) birinchi tinglovchilar bo'lishdi.

San'at, falsafa va siyosat to'g'risidagi suhbatlar va qizg'in munozaralar raqslar bilan almashib turdi, ular uchun Shubert bir nechta musiqa yozgan va ko'pincha shunchaki uni improvizatsiya qilgan. Minutlar, fotoalbomlar, polonayzalar, yer egalari, polka, gallop - bu raqs janrlari doirasi,



"Шубертиада". Франц Шуберт в резиденции графини Каролины Эстерхази. Мориц фон Швинд, 1868

ammo valslar hamma narsadan ustun - nafaqat raqslar, balki lirik miniatyuralar. Psixologik raqs, uni kayfiyatning she'riy rasmiga aylantirib, Shubert F. Chopin, M. Glinka, P. Chaykovskiy, S. Prokofyevning valslarini kutardi.

To'garakning barcha a'zolari yosh edi, ularning oqshom uchrashuvlari ham ruhan yosh edi. Bu degani beparvo hayot oqadi degani emas. Shubert unga juda katta hajmda yozishga imkon beradigan aniq jadval tuzdi. Ertalab hech kim uni bezovta qilishga jur'at eta olmadi: kunning birinchi yarmi doimo kompozitsiyaga bag'ishlandi. Ba'zida kuniga sakkiztagacha qo'shiq paydo bo'ldi. Uning asarlarining to'liq ro'yxati mingga yaqin raqamlardan iborat, shulardan 600 tasi qo'shiqlardan iborat va shunga qaramay uning hayotining ko'p vaqti kompozitorlikka bag'ishlangan!

"Men har kuni ertalab bitta bastalab pyesani tugatganimda, boshqasini boshlayman ..."

Kichkina, badbashara, nomutanosib ravishda katta boshli, u dunyoviy salonlardan qochar edi, yangi tanishlardan ehtiyot bo'lar edi. Uning shaxsiy hayoti samara yaxshi bermadi. Uch yil kutgandan keyin, Tereza Kofin boshqasiga turmushga chiqib ketdi. Bu Shubert uchun zarba bo'ldi.

"... Men chin dildan sevardim, u ham meni sevar edi. U ... mendan bir oz yosh edi va mo'jizaviy ravishda, chuqur his-tuyg'ular bilan, men yozgan massada soprano yakkaxon kuyini kuylardi. Terezani yuzida dog'lar bo'lgani bois uni

chiroyli deb atash mumkin emas edi, ammo uning qalbi ajoyib edi. Uch yil davomida Tereza unga uylanishimga umid qildi, lekin men ikkalamizni ham ta'minlaydigan yaxshi ish topolmadim. Keyin, ota-onasining xohish-irodasiga ko'ra, u boshqasiga turmushga chiqdi, bu menga katta og'riq keltirdi. Men hozir uni sevaman, shundan beri men unga o'xshagan odamni sevmaganman. Biz, albatta, birga bo'lguvchi emasmiz“, dedilar.



Графиня Каролина Эстергази

Bir necha yil o'tgach, yangi bir tuyg'u paydo bo'ldi, undan ham umidsizroq: u o'zining talabasi, eng taniqli venger oilalaridan birining vakili Karolina Esterxaziga oshiq bo'ldi. Sog'liqni saqlashga bo'lgan doimiy ehtiyoj bilan birga, bu juda xira fikrlarni qo'zg'atdi. Buning ajablanarli joyi yo'q, uning vokal asarlari shunchaki nafaqat qayg'u bilan, balki chinakam fojia bilan uyg'unlashadi.

Shubertning qo'shiqlari yozilgan holda nashr etiladi va omma orasida eng mashhur raqslar qatoriga kiradi. Biroq, nashriyotlarning haqi mutlaqo adolatsizdir va bu faqatgina maqsadlarni qondirish uchun zo'rg'a imkon beradi. Shunday qilib, ma'lumki, “Qish yo'li” qo'shiqlari uchun - ehtimol, ushbu janrning butun tarixidagi eng yaxshi vokal sikl - nashriyotchi gilderga juda muhtoj bo'lgan bastakorga ushbu qo'shiq uchun pul to'lagan. Tijorat talabiga ega bo'lmagan yirik asarlar umuman nashr etilmadi.



Wilhelm Müller

Vilgelm Myuller<sup>46</sup> (*nem. Wilhelm Müller 1794-1827*) ning she'riy turkumlari Shubert uchun ijodiy omil va poetik asos vazifasini bajardi. Shubertning ikkita qo'shiqlar turkumi – “Go'zal tegirmonchi qiz” va “Qishki yo'l” - vokal janrlari tarixidagi yangi sahifalardir. Turkumlar orasida zich aloqadorlik mavjud: she'riy matn bitta shoirga - Vilgelm Myullerga tegishli, har ikki holatda ham bitta shaxs - baxt va muhabbat izlayotgan daydi harakatlanadi. “Go'zal tegirmonchi qiz” asarining qahramoni hayotga shodiyona odim tashlayotgan

<sup>46</sup> [https://en.wikipedia.org/wiki/Wilhelm\\_Müller](https://en.wikipedia.org/wiki/Wilhelm_Müller)

yigitchadir. “Qishki yo’l»”da u hamma narsasi orqada qolgan, hamma narsadan hafsalasi pir bo’lgan kishidir. Har ikki turkumda ham hayot va inson kechinmalari tabiat bilan zich qo’shilib ketgan. “Go’zal tegirmonchi qiz” turkumi bahorgi tabiat qo’ynida rivojlanadi. “Qishki yo’l” turkumi esa ayovsiz qish manzarasida tasvirlanadi. Yoshlik barcha orzu-umidlari hamda sarobli xayollari bilan gullayotgan bahorga, yolg’izlik izg’irini esa qorlar qoplangan qish tabiatiga o’xshatiladi.

Shubert hayotining oxirgi o’n yilligidagi asarlar juda rang-barang. U simfoniylar, fortepiano uchun sonatalar, kvartetlar, kvintetlar, trio, messalar, operalar, ko’plab qo’shiq va boshqa musiqalarni yaratadi. Biroq kompozitorning tirikligida uning asarlari juda kam ijro etilgan. Shuning uchun ham



Трое друзей – Иоганн Батист Энгер, Ансельм Хюттенбреннер и Франц Шуберт. Литография Й. Тельчера, 1827

ularning ko’p qismi qo’lyozmalarda qolib ketgan edi. Na mablag’, na qo’li uzun homiylarga ega bo’lgan Shubertda o’z asarlarini nashr qilish imkoni deyarli darajada emas edi.

Shubertning birorta ham operasi sahnalashtirish uchun qabul qilinmagan, vaholanki u “Shaytonning quvnoq uyi” (1814), “Alfons va Estrella” (1822) operalarini, “Fernando” (1815), “Egizaklar” (1819), “To’rt yillik ro’za” (1815) musiqiy asarlarini yozgan edi. Uning simfoniylaridan birortasi ham orkestrda ijro etilmagan. Bugina emas, uning eng yaxshi Sakkizinchi hamda To’qqizinchi simfoniylari kompozitor vafotidan bir necha yillar o’tgachgina topilgan.




hesl. Johann Wolfgang von Goethe

Iogann Volfgang Gyote<sup>47</sup> (*Johann Wolfgang von Goethe 1749-1832*) ning she’rlariga bastalangan qo’shiqlar garchi ularni Shubertning o’zi shoirga yuborgan bo’lishiga qaramasdan, e’tibor qozonmagan. Tortinchoqlik, o’z ishlarini yo’lga qo’ya olmaslik, qo’li uzun kishilardan biror narsa so’rashni istamaslik, ular oldida past ketishdan tiyilish ham Shubertning doimiy moddiy qiyinchiliklariga sabab edi.

<sup>47</sup> [https://en.wikipedia.org/wiki/Johann\\_Wolfgang\\_von\\_Goethe](https://en.wikipedia.org/wiki/Johann_Wolfgang_von_Goethe)

Doimiy umidsizlik, baʼzan hatto ochlikka qaramasdan kompozitor na 5-knyaz Miklosh Iosif Esterxazi-Forxenshtayn<sup>48</sup> (venger, *Esterházy Miklós József 1714-1790*) xizmatiga kirishni xohlar, na saroy organchilari yoniga borardi. Vaholanki, ular uni har doim saroyga taklif qilishar edi. Baʼzi paytlarda Shubertning hatto fortepianosini ham boʻlmas, u musiqa asbobisiz ijod qilar edi. Moddiy qiyinchiliklar uning musiqa yaratishiga halal bera olmasdi. Shunga qaramasdan Venaliklar Shubert musiqalarini tanishar va yaxshi koʻrishardi. Ularning qalbiga Shubertning oʻzi yoʻl topgan edi.



***Shubertning vokal ijodi.*** Shubertning musiqa merosida olti yuzdan ortiq qoʻshiqlar oʻrin olgan. Nazmiy matnlarda u oʻziga yaqin boʻlgan oʻy-fikr, hissiyotlarga javob izlagan. U ayniqsa sheʼrning musiqaga monandligiga diqqatini jalb qilgan. Chunonchi, Shubert yozgan qoʻshiq turkumlari sheʼrlarining muallifi Vilgelm Myullerning oʻzi asarlarini qoʻshiq qilib kuylashga moʻljallagan va bu Shubertni qiziqtirib qoydi.



Vokal lirika tarixiga Shubert Gyote qoʻshiqlari bilan kirib keldi va oʻzining qisqa hayotini Xristian Iogann Genrix Geyne<sup>49</sup> (nem. *Christian Johann Heinrich Heine*, tarjimasi - *Кристиан Йохан Хайнрих Хайне*, 1797-1856) sheʼrlariga yozilgan qoshiqlari bilan yakunladi.

Shubert qoʻshiqlarida vokal lirikasi asosiy oʻrin egallaydi, ularda sheʼriyat va musiqaning uygʻnlashuviga yangi romantik munosabat oʻz aksini topdi, unda soʻz “kuylaydi”, ohang esa “gapiradi”. Shubert kuychan, qoʻshiqona ohanglarni deklamatsiyali, nutq intonatsiyalari bilan nozik tarzda birlashtirib, XIX asr musiqasida asosiy oʻrinni egallagan ifodaviy vokal melodikasining yangi turini yaratdi. Vokal

<sup>48</sup> [https://hu.wikipedia.org/wiki/Esterházy\\_Miklós\\_József](https://hu.wikipedia.org/wiki/Esterházy_Miklós_József)

<sup>49</sup> [https://en.wikipedia.org/wiki/Heinrich\\_Heine](https://en.wikipedia.org/wiki/Heinrich_Heine)

melodikasining ushbu turi musiqaning cholg'u sohasini qamrab olib, kelajakda Shuman, Brams vokal lirikasida, Shopen ijodida yangidan o'zgarishlar bilan rivojlandi. Frans Shubert qo'shiqlarida vokal melodikasi matnning turli burilishlariga, uning xususiyatlarini bo'rttirgan holda moslasha olish xususiyatlariga ega. Badiiy tavsifning qudratli omili bo'lgan va uningsiz badiiy yaxlitlikning o'zi mavjudligi mumkin bo'lmagan jo'rlik (*akkompaniment*<sup>50</sup>) ning ham ahamiyati kattadir. Frans Shubert vokal asarlarining musiqiy shakli musiqiy-shoirona obrazning xarakteri va harakatidan kelib chiqadi. U kuplet shakliga murojaat qiladi.

Frans Shubert tomonidan topilgan vokal melodikasi, fortepiano partiyasi, qo'shiq janrlari va shakllarining tamoyillari kelajak rivojlanishga asos soldi va vokal lirikasining butun kelajak evolyutsiyasiga turtki bo'ldi.

1827 yil yozida Shubert Shiriyaga - uning poytaxti Grazdan tashrif buyurib, uning san'atini yuksak qadrlaydigan pianinochi M. Pichlerdan taklif oldi. Yil ajoyib ijodiy parvoz bilan tugaydi. "Qish yo'li" ning ikkinchi qismi, pianino triosi, nemis massasi, skripka va pianino uchun fantaziya. Ammo na ish uchun katta imkoniyatlar, na o'sib borayotgan tanishlar Shubertning hayot sharoitida hech narsani o'zgartira olmaydi.

Ba'zida bastakorni ko'rishi tushkun bo'lganligi ajablanarli emas. Nashriyotchilar uni asarlarini uyatsiz ravishda o'g'irlashadi. Shundan so'ng Shubert yaratgan asarlari o'z imzosini qo'ldiradigan bo'ldi.

U 1828 yil yozida yana Gratsga borishni orzu qilar edi, ammo uning moliyaviy imkoniyatlari unga Badendagi bir necha kunini o'tkazishga imkon berdi va bu unga Vena gazetalaridan birining noshiri tomonidan taklif qilinganligi sabab bo'ldi.

Kuz oyida u Eyzenshtadtga Gaydn qabri oldida tashrif buyurdi. Yil oxirida muallifining kontserti rejalashtirilgan edi, lekin tanasini chaqib olgan zararkunanda asorati tinchlik bermasedi. Bu narsa bastakor ijodi uchun to'sqinlik qiluvchi ulkan

---

<sup>50</sup> <https://ru.wikipedia.org/wiki/Аккомпанемент>

voqea edi. Biroq, kasallik konsert bo'lib o'tishi to'sqinlik qilishi kerak emas edi. Tez kuchayib o'sib borayotgan kasallik bir necha hafta ichida Shubertni bu hayotdan olib ketdi.

1828 yil 19-noyabrda Frans Shubert vafot etdi. Dafn marosimi 21-noyabr kuni bo'lib o'tdi. Dafn marosimi Jozef Vena Margaretenning chekkasidagi cherkovda o'tkazildi va Frans Shubertni mahalliy qabristonga dafn qilindi.

Ammo bu so'nggi orom olish joyiga aylanmadi. Vaqtlar o'tib yaqinlari Shubertning umrining so'nggi kunlarining birida, dilbarlik chog'idagi - "Yo'q, haqiqat emas, Betxoven bu yerda emas" degan so'zlarini eslashdi. Ularda Betxoven yaqiniga dafn etish istagi paydo bo'ldi. Shubertning qabri ikki marotaba 1863 va 1888 yillarda qayta ochiladi.

Ikkinchi marta Shubertning xoki Vena markaziy qabristoniga Betxoven qabri, Motsart haykali yonida, Glyuk, Braxms, G. Wolf va I.Strauss qabrlari yoniga ko'chirilib dafn etildi.

Shuning uchun, rekvizemadan so'ng, Frans Shubert tanasi cherkovga topshirildi. Lourensda ikkinchi rekvizitsiya bo'lib o'tdi va Shubert Betxoven qabri yoniga dafn etildi.

### **Friderik Shopen ijodi.**



Friderik Shopen<sup>51</sup> (*Frédéric François Chopin*; 1810.22.2, Jelyazova Volya, Varshava yaqinida-1849.17.10, Parij)-polyak kompozitori, pianinochi, musiqiy romantizmning yirik vakili, milliy kompozitorlik maktabi asoschisi. Bolaligidan nodir iste'dodga ega bo'lib, ilk asarlari 7 yoshida nashr etilgan, 8 yoshida pianinochi sifatida konsert bergan. 1830-31 yillar Venada, 1831 yildan Parijda yashab, 1830 yillar o'rtalaridan asosan ijod bilan shug'ullangan. 1848 yilda Buyuk Britaniyaga gastrolga boradi, qirolicha Viktoriyaga o'z ijodidan bahramand qiladi va Manchester, Glazgo, Edinburgda konsert beradi. 1848 yil aprelda

<sup>51</sup> [https://en.wikipedia.org/wiki/Frédéric\\_Chopin](https://en.wikipedia.org/wiki/Frédéric_Chopin)

konsertlar uyushtirish va dars o'tish uchun Londonga yo'l oladi. Bu Friderik Shopenning oxirgi sayohati bo'lib qoldi.

Uzoq vaqt asabiy va zo'riqib ishlash, britaniyaning nam havosi va surunkali o'pka kasaligi, uning butun kuchini olib qo'ygandi. Tomoshabinlar oldidagi oxirgi konserti 16 noyabr 1848 yil Gildxollda bo'lib o'tdi. Friderik Shopenning kuchi shu darajada kam ediki, u faqat bir soat konsert bera oldi. Bir haftadan keyin Parijga qaytib keldi va 17 oktyabr 1849 yilda o'zining Parijdagi Vandom maydonida joylashgan uyida vafot etdi. Friderik Shopenning xalqchil, vatanparvarlik, romantik ijodi polyak musiqasini jahonga tanitdi. Noyob ijrochilik mahoratiga ega bo'lgan Friderik Shopen fortepiano musiqasining ifoda va texnik imkoniyatlarini kengaytirdi, milliy ommabop raqs shakllarini badiiylashtirdi. 1927 yildan Varashavada Friderik Shopen nomidagi xalqaro pianinotchilar tanlovi o'tkazilmoqda.

Polyak bastakori va musiqashunos Frederik Shopenning nomi jahon musiqa san'atining Motsart, Betxoven, Bax kabi daholari qatoridan haqli ravishda munosib o'rin egallagan. Ulkan iste'dod sohibi Friderik Shopen ijodi insoniy ehtirolarga, his-tuyg'ularga boy. Shuning uchun ham uni bir chashmaga mengzash mumkin.

1810 yil 22 fevral kuni Varshava yaqinidagi Jelyazova Bolya qishlog'ida asli nasabi frantsuz bo'lgan Nikolya Friderik Shopen hamda polyak ayoli Yustina Kshijanovskaya oilasida bir go'dak dunyoga keladi. Uning yuksak iste'dod egasi ekanligi yoshligidanoq bashorat qilingan. Bolakay dastavval opasi Lyudvika bilan duetlar ijro etib yuradi. Keyinchalik u opasini "ilk ustozim" deya e'tirof etadi.

Bolakay yetti yoshga to'lganida, otasi uni musiqiy savod chiqarishi uchun fortepyano bo'yicha mutaxassis qo'lga topshiradi. Jajji Friderikning ajabtovur odatlari bo'lib, fortepyanoni qop-qorong'i xonada chalishni juda-juda yoqtirardi. Friderik Shopen ba'zan yarim kechasi uyg'onib, o'zi yoqtirgan musiqasini baralla chalishga tushib ketar, bundan uyidagilarning o'takasi yorilay derdi. Mittigina barmoqchalari bilan klavishlarni chalishga qiynalayotgan Friderikning xayoliga barmoq o'stiradigan moslama yasash fikri keladi. U joni og'rishiga qaramay,

moslamani kechayu kunduz qo'liga taqib yuradi. Tabiiyki, bunday bolani ko'rgan ko'z, eshitgan quloq borki, uni sal "g'alatiroq"qa chiqarib qo'yishi aniq. Xonadon xizmatkorlari esa uni naq aqlidan ozgan deyishadi. Shopen o'n yoshida knyaz Konstantinga bag'ishlangan marshini yaratadi va bu asar harbiy orkestr jamoasi tomonidan bir necha marta ijro ham etiladi.

Keyinchalik yosh san'atkor taniqli chex musiqachisi Voytsex Jivniy qo'lida tahsil oladi. O'shanda murabbiysi uning qalbida I.S.Bax ijodiga mehr uyg'otgan bo'lsa ajab emas. Boshi bilan ijodga sho'ng'igan Friderikdan mashhur musiqachi chiqishiga shubha yo'q edi. Yosh Shopen iqtidori, tirishqoqligi, mehnatsevarligi tufayli "polyak Motsarti" nomini oladi. O'n ikki yoshga to'lganida uning mahorati barchani, yaqinlariyu tanish-bilishlarini hayratga soladi. O'zidan-da o'zib ketgan shogirdiga boshqa hech nima bera olmasligini anglab yetgan ustoz Jivniy esa unga saboq berishdan voz kechadi.

1829 yildan Friderik Shopenning mustaqil ravishdagi ijodiy faoliyati boshlanadi desak xato bo'lmaydi. Ijodkor Vena, Krakov kabi shaharlarda gastrol safarlarida bo'lib, o'z iste'dodini namoyish etadi va ko'plab muxlislar orttiradi. Motsart, Betxovenlar Venani zabt etganidek, Shopen ham butun Parijni o'ziga butkul rom etadi.

1830 yilda Polsha ozodligi yo'lida ko'tarilgan qo'zg'olonda san'atkor vatanidan ancha olisda edi. U bu qo'zg'olonning daragini eshitishi bilanoq kuyib-yonib yo'lga o'tlanadi. Biroq manzilga yetishga ulgurolmaydi. Bu paytda qo'zg'alon bostirilib bo'lgan, qatnashchilari esa hibsga olingandi. "Polsha porloq, zabardast, hur yurt bo'ladi!" – deb yozgan edi u o'z kundaliklarida.

Friderik Shopen muntazam kontsert dasturlari, tadbirlar uyushtirib turar, ularda asosan o'zi yaratgan kuylarni chalardi. Kontsertlarining birida u Motsartning "Don Juan" asarini yangicha talqinda ijro etadi. Aynan shu kuy sabab nemis bastakori va musiqashunos munaqqid Robert Shuman: "Janoblar, bosh kiyimingizni yeching, qarshingizda – ulug' iste'dod sohibi turibdi!" – degan so'zlar bilan Shopenni maqtovu olqishlarga ko'mib tashlaydi.

Friderik Shopen musiqaga alohida bir til sifatida qarar, uni insonning tabiiy, ravon nutqiga qiyoslardi. Uning “Til yakkam-dukkan so’zlardan emas, yaxlit nutqdan tashkil topganidek, alohida tovushlar ham kuy yarata olmaydi. Musiqa hosil bo’lishi uchun tovushlar uyg’unligi kerak”, degan so’zlari ayni haqiqatdir.

Venger bastakori Frants List Friderik Shopen ijodiga ta’rif berib: “Uning ohanglari go’yo shiddatli to’lqinlar uzra tebranayotgan qayiqdir, yoki, aksincha, bu foniy dunyoda daf’atan paydo bo’lib, nigohimiz elas-elas ilg’aydigan sharpa misoldir”, degan edi. Betxoven davrida urf bo’lgan musiqiy klassitsizm keyinroq romantizmga o’rin bo’shatib beradi va Friderik Shopen bu yo’nalishning yorqin vakiliga aylanadi.

1836 yili Friderik Shopen Parijda Jorj Sand taxallusi ostida ijod qilgan adiba (asl ismi sharifi Avrora Dyupe) bilan tanishadi. Friderik Shopenning o’ziga ham, asarlariga ham maftun bo’lgan bu ayol keyinchalik san’atkorning hamrohi, maslakdoshiga aylanadi. Ular qariyb o’n yil davomida turmushning achchiq-chuchugini, quvonchiyu zahmatlarini birga totib, bir-birlariga suyanib yashashadi.

40-yillarning oxirlarida bastakor Angliyada yashay boshlaydi. Ammo kundan-kun ahvoli og’irlashib borayotgan Friderik Shopenning dardi u yerda battar yomonlashadi. Shunday bo’lsa-da, u lord Dadli Styuartga bergan vadasining ustidan chiqadi. 1848 yilning kech kuzida Polsha do’stlari jamiyatining foydasiga uyushtirilgan xayriya kontsertida ishtirok etib, muxlislarini yana bir karra xushnud etadi. Bu esa uning so’nggi kontserti ekanligini hech kim xayoliga ham keltirmagan edi...

1849 yilning 17 oktyabrida – jahon musiqa san’ati yana bir zabardast, iste’dodli o’g’lonidan judo bo’ldi...

Buyuk bastakor Friderik Shopendan fortepiano uchun ikkita kontsert, trio, sonatalar, to’rtta ballada, to’rtta eksprompt, o’n oltita polonez, ellik sakkizta mazurka, o’n yettita vals, yigirma bitta noktyurn, yigirma oltita prelyudiya, yigirma yettita etyud, o’n to’qqizta qo’shiq va boshqa ko’plab musiqiy asarlar ijodiy meros bo’lib qoldi va jahon musiqa san’ati xazinasidan joy oldi.

Friderik Shopen o'z hayotining so'nggi damlarini Frantsiyada o'tkazgan bo'lsa-da, vafotidan so'ng jasadini kindik qoni to'kilgan, bolalikning shodu xurram damlari o'tgan ona Vatani – Polsha tuprog'iga qo'yishlarini vasiyat qiladi. Friderik Shopen qisqa umr ko'rdi, u bu dunyodan ko'z yumganida hali qirq yoshga ham to'lmagandi. Ammo bir yarim asrdan oshibdiki, uning nomini san'at ixlosmandlari daho ijodkor sifatida hali-hanuz faxr bilan tilgan oladilar. Buyuklikning sharafi ham, shoni ham shunda, aslida.

### **Ferens (Ferens) List ijodi.**



Ferens (Frans) List (*Liszt Ferenc*; 22-oktabr 1811 – 31-iyul 1886), Vengriyalik bastakor, pianinochi, dirijyor, pedagog va musiqa jamoat arbobi<sup>52</sup>. Budapesht Musiqa akademiyasining asoschisi (1875-yildan prezidenti). Ferens List 6 yoshidan otasidan pianino chalishni o'rganib, 9 yoshidan konsert bera boshlagan. Ferens List virtuoz pianinochi sifatida 1847-yilgacha jadal konsert faoliyati bilan shug'ullanib, butun Yevropa mamlakatlarida gastrolga bo'lgan. Fortepiano ijrochiligining buyuk islohotchisi Ferens List o'zining artistik jo'shqinligi, tabiiy kuch va betakror mahorati bilan tinglovchilarni rom qilgan.

1847 – 61-yillarda Veymar saroyi kapelmeysteri bo'lib, ko'proq kompozitorlik ijodi bilan shug'ullangan. Ferens List ijodida romantizm g'oyalari aks etgan. Teran musiqiy obrazlarni muayyan adabiyot, tasviriy va hatto haykaltaroshlik san'ati mavzulari bilan o'zaro uzviy bog'liqligi, asar mazmunini falsafiy umumlashtirish Liszt ijodiga xosdir. U bir qismli dasturli simfonik poema janrini hamda monotematizm (butun asar davomida bitta, rivojlanish jarayonida tobora o'zgarib boruvchi kuyga asoslanish) prinsipini kashf etib, mavzuli-dasturli cholg'u musiqasi asoslarini yaratgan. Jami 1200 ga yaqin asar muallifi. Ulardan "Faust – simfoniya" (Gyote asari asosida, 1857), "Dantening "Ilohiy komediya"siga simfoniya" (1857), "Tasso" (1854), "Prelyudlar" (1854), "Mazepa" (1851), "Prometey" (1855) kabi simfonik poemalari, 2 ta fortepiano konserti

<sup>52</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Franz\\_Liszt](https://uz.wikipedia.org/wiki/Franz_Liszt)

(1849-56, 1839-61), 3 to'plamdan iborat "Ziyorat yillari" nomli fortepiano asarlari, romanslari, venger xalq ohanglari (verbunkosh uslubi, chardash raqsi usullari) zaminida yaratilgan 19 ta ven-gercha rapsodiyasi (1847-85), "Vengriya" (1854) simfonik poemasi, fortepiano uchun "Venger tarixiy manzaralari" (1886) va boshqa mashhur. Budapesht Oliy musika maktabi Ferens List nomida.

Shunday qilib kompozitor hayotiga kengroq nazar soladigan bo'lsak.

Ferens List - buyuk Vengriya-Germaniya kompozitori, pianinochi, dirijor, o'qituvchi, publitsist, musiqiy romantizmning yirik vakili, Vengriya musiqa san'ati rivojiga katta hissa qo'shgan jamoat arbobi.

Listning taqdiri shunday bo'ldiki, u Vengriyani erta tark etdi va umrining ko'p yillarini Fransiya va Germaniyada o'tkazdi.

San'atkor List doimo o'zining vengr ekanligini ta'kidlagan. U o'z xalqi, Vatani bilan faxrlanib, doimo vengr musiqa madaniyatini qo'llab-quvatlagan va rivojlantirishga harakat qilgan. Hayoti davomida List vengr mavzusiga ko'p murojaat qilgan. U yaratgan asarlar: "Vengr uslubidagi qahramonlik marshi", "Vengriya" kantatasi, bir nechta "Vengr milliy kuylari" daftarlari, vatan obrazlari bilan bog'liq uchta simfonik poema, ("Qahramonlar haqida girya", "Vengriya", "Gunnlar jangi"), xalq ohanglari qo'llanilgan erkin shaklli vengr rapsodiyalari, Vengriya mashhur arboblarning (Sh. Petefi, M. Vereshmarti) musiqiy xarakteristikasidan iborat "Vengr portretlari" fortepiano uchun mo'ljallangan qo'shiqlar turkumi. Vengr mavzularini damli cholg'ular uchun maxsus yozilgan asarlarida ham eshitish mumkin: "Gran ibodati", "Muqaddas Yelizaveta haqida afsona", "Vengr toj kiyish marosimi messasi" va boshqalar. Listning Vengriya bilan bo'lgan aloqalari haqida uning vengr lo'lilari musiqasi haqidagi kitobida va uning Budapeshtdagi milliy musiqa akademiyasi birinchi prezidenti etib tayinlanishi (1875) guvohlik beradi.

List - musiqiy romantizmning eng yorqin namoyandasi. U kompozitor sifatida turli g'oyaviy qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar va romantik estetikaning ta'sirini ham boshidan o'tkazgan edi. Listning o'zi ham ziddiyatlardan xoli emas edi. Ijod qarama-qarshiligi bir tomondan dasturiylikka, musiqaning aniq

obrazlilikiga intilishida ko'rinsa, ikkinchi tomondan bu vazifalarni bajarishda reallikdan uzoqlashish namoyon bo'ladi.

Listning dasturiylikka munosabati progressiv hodisa edi. Bastakor o'z san'ati bilan uni qadrlaydiganlarning tor doirasi bilan cheklanmay, tinglovchilarning keng ommasi bilan so'zlashishni istardi. Chuqur fikrlar va tuyg'ularni gavdalantirishga harakat qilib, u ko'pincha abstraksiya, noaniq falsafa so'qish holatiga tushib qolar va shu sababli beixtiyor tarzda o'z asarlarining ta'sir doirasini cheklab qo'yardi. Lekin ularning eng yaxshilarida dasturning bunday umumiy noaniqligi va noravshanlik yengib o'tilardi.

List yaratgan musiqa namunalari aniq va tushunarli, mavzusi ta'sirli va ravshan, shakli aniq. Dasturiy an'analar Listning ko'plab transkripsiyalarida ko'zga tashlanadi, negaki, ular opera va romanslarning aniq sujeti bilan bevosita bog'liq. Listning vengr xalq hayoti manzaralarini aks ettiruvchi rapsodiyalari ham dasturiy hisoblanadi.

Listning dasturiylik tamoyillari Berlioznikidan farq qiladi. Berlioz simfoniyasida sujet rivojini bayoniy uslubga bersa, Listni ko'proq asosiy poetik g'oyaning umumlashmasi qiziqtiradi.

O'zining rang-barang topilmalari bilan List melodika sohasini kengaytirgan holda bir vaqtning o'zida u garmoniya sohasida ham yangiliklar kiritadi. List "simfonik poema" janri va "monotematizm", deb ataluvchi musiqiy rifojlanish usullarining yaratuvchisi bo'lib hisoblangan. Listning fortepiano texnikasi, faktura sohasidagi muvaffaqiyatlari ahamiyatlidir, negaki, List daho darajasidagi ijrochi bo'lgan va tarixda unga yetadigani bo'lmagan.

Uning otasi Adam List<sup>53</sup> (nem. *Adam List*, veng. *Liszt Ádám*; 1776-1827) shahzoda Esterxazi saroyidada amaldor bo'lgan. Esterxazi shahzodalari san'atni qo'llab-quvvatladilar. 14 yoshiga qadar Adam Jozef Gaydn



<sup>53</sup> [https://ru.wikipedia.org/wiki/Лист,\\_Адам](https://ru.wikipedia.org/wiki/Лист,_Адам)

boshchiligidagi shahzoda orkestrida violonchelni ijro etdi. Adam Lists Pressburgdagi (hozirgi Bratislava<sup>54</sup>) katolik gimnaziyasini tamomlagandan so'ng, Frensiskada keldi, ammo ikki yildan so'ng uni tark etishga qaror qildi. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, u butun umri davomida fransiskaliklardan biri bilan do'stona munosabatda bo'lib kelgan, bu ba'zi olimlarning ta'kidlashicha, unga o'g'lining ismini Frantsiya deb ism qo'yishga ilhomlantirgan. Shu bilan birga fransiskaliklar bilan munosabatlarni davom ettirgan.

Adam Liszt o'z asarlarini Esterxazi<sup>55</sup> (veng. *Esterházy de Galántha*) ga bag'ishlagan. 1805 yilda u o'z tayinlanishiga knyazlarning qarorgohi joylashgan Eyzenshtadtda erishdi. U yerda, 1805-1809 yillarda, asosiy ishidan bo'sh vaqtlarida u orkestrga qatnashishni davom ettirdi va u yerga kelgan ko'plab musiqachilar, shu jumladan Cherubini va Betxoven bilan ishlash imkoniga ega bo'ldi. 1809 yilda Adam Reydingga yuborildi. Uning uyida otasining budi bo'lgan va keyinchalik o'g'lining buti bo'lgan Betxovenning portreti osilgan edi.

Listning onasi Anna Mariya<sup>56</sup> (1788-1866), Krems-on-Dunay novvoyining qizi. 9 yoshida yetim qolib Vena shahriga ko'chib o'tishga majbur bo'lgan va u yerda xizmatkor bo'lgan va 20 yoshida u Mattersburgga akasining yoniga ko'chib ketgan. 1810 yilda Adam List, Mattersburgga otasini ziyorat qilish uchun kelgan paytda, Anna Mariya bilan uchrashgan va 1811 yil yanvarida ular turmush qurishgan.

Ferens List 1811-yil 22-oktabrda Vengriyaning Doboryan shaharchasida dunyoga kelgan. List oilada yagona bola edi. Oila nemis tilida gaplashishar edi.

Suvga cho'mish paytida berilgan nom lotin tilida Franciskus deb yozilgan va Frants nemis tilida talaffuz qilingan. Venger manbalarida Ferens nomi ishlatilgan, garchi keyinchalik Listning o'zi ham, tilni yaxshi bilmasa ham bu so'zni kamdan-kam ishlatgan.

Bolaligida lo'lilar ohanglari va vengr dehqonlarining quvnoq qo'shiqlariga maftun bo'lib qolgan. Listning otasi, graf Esterxazining katta yer-mulkida

---

<sup>54</sup> <https://en.wikipedia.org/wiki/Bratislava>

<sup>55</sup> <https://ru.wikipedia.org/wiki/Эстерхазн>

<sup>56</sup> <https://biographe.ru/znamenitosti/ferenc-list/>

boshqaruvchi, havaskor musiqachi bo'lgan va o'g'lining musiqaga qiziqishini qo'llab-quvvatlardi. Aynan u bolaga fortepiano chalish asoslarini o'rgatgan.



9 yoshida Ferens Vengriyaning shimoli-g'arbiy qismida, Avstriya chegarasiga yaqin bo'lgan qo'shni Sopron shaharchasida o'zining birinchi konsertini beradi. Tez orada u Esterxazining ajoyib qasriga taklif etiladi.

Bolakayning ijro mahorati graf mehmonlarini shunchalik hayratlantirdiki, bir nechta zodagonlar Listning musiqiy ta'lim olishi uchun pul to'lash istagini bildirishdi.

Ferensni Venaga yuborishdi, u yerda kompozitsiyani Italiya va Avstriya kompozitori, dirijyor va o'qituvchi Antonio Salyeri<sup>57</sup> (*ital. Antonio Salieri, nem. Anton Salieri; 1750-1825*) dan va



forteplanoni Yevropaning yirik pedagogi

Avstriyalik pianist va Chexiyalik kompozitor Vena shahrida fortepianoning eng yaxshi ustozlaridan biri deb tan olingan, fortepiano uchun juda ko'p sonli musiqa asarlarini yaratgan Karl Cherni<sup>58</sup> (*nem. Carl Czerny, 1791-1857*) dan o'rgandi.

Listning Venadagi debyut kontserti 1822-yil 1-dekabrda bo'lib o'tdi. Tanqidchilar hayratda qolishdi va shundan e'tiboran, List uchun shuhrat va to'la zallar ta'minlandi.

U Avstriya kompozitori, musiqiy asarlarning muharriri va mashhur noshiri Antonio Diabelli<sup>59</sup> (*nem. Anton Diabelli, 1781-1858*) dan vals mavzusiga variatsiyalar yozish taklifini oladi, shunday qilib, yosh musiqachi noshir xuddi shu iltimos bilan murojaat qilgan buyuk Betxoven va Shubert davrasiga qo'shilib qoldi. Shunga qaramay List (xorijlik sifatida) Parij konservatoriyasiga qabul qilinmagan, va o'z bilimni oshirish



<sup>57</sup> [https://en.wikipedia.org/wiki/Antonio\\_Salieri](https://en.wikipedia.org/wiki/Antonio_Salieri)

<sup>58</sup> [https://en.wikipedia.org/wiki/Carl\\_Czerny](https://en.wikipedia.org/wiki/Carl_Czerny)

<sup>59</sup> [https://en.wikipedia.org/wiki/Anton\\_Diabelli](https://en.wikipedia.org/wiki/Anton_Diabelli)

maqsadida to'lovli darslarga qatnadi. List musiqa nazariyasi bo'yicha Parijda italyan operasi kapelmeystri F. Pauer va konservatoriya professori chex A. Reyxdan ta'limoldi.



Listning dastlabki kompozitorlik tajribalaridan biri 1825-yili Grand Operada qo'yilgan "Don Sancho yoki muhabbat qasri" operasi bo'ldi. Bu vaqtda u konsertlar bilan Fransiya va Angliyaga bir qator safarlarni

amalga oshirdi. Otasining o'limidan so'ng (1827) List dars bera boshladi. O'sha




paytda yosh kompozitorlar Frantsuz kompozitori, dirijyor, Romantik davr musiqiy yozuvchisi 1856 yildan Frantsiya instituti a'zosi Gektor Berlioz<sup>60</sup> (*fr. Louis-Hector Berlioz, 1803-1869*) va Fredirik Shopen<sup>61</sup> (*polsk. Fryderyk Franciszek Chopin, yana. Szopen, fr.*



*Frédéric François Chopin 1810-1849*) bilan tanishdi.

Ularning san'ati Listga katta ta'sir ko'rsatdi: u Berliozning partifurasidagi milliy-mahalliy boylikni «fortepiano tiliga o'girish» hamda Shopenning mayin lirizmini o'zining jo'shqin temperamenti bilan qo'shib olib borishni uddalay olardi. List Shopenga bag'ishlangan ko'plab nozik va aniq tavsiflar va kuzatishlardan iborat bo'lgan kitob yozadi.



1830-yil boshida italiyalik virtuoz skripkachi, kompozitor Nikkolo Paganini<sup>62</sup> (*ital. Niccolò Paganini, 1782-1840*) Listning eng yaxshi ko'rgan san'atkoriga aylandi. List o'sha darajada ajoyib fortepiano uslubini yaratishni maqsad qilib oldi va hatto, Paganining konsert estradasida o'zini tutishidagi ayrim xususiyatlariga taqlid qilardi. Endi List virtuoz pianinochi sifatida raqobatchiga ega emasdi.

<sup>60</sup> [https://en.wikipedia.org/wiki/Hector\\_Berlioz](https://en.wikipedia.org/wiki/Hector_Berlioz)

<sup>61</sup> [https://en.wikipedia.org/wiki/Frédéric\\_Chopin](https://en.wikipedia.org/wiki/Frédéric_Chopin)

<sup>62</sup> [https://en.wikipedia.org/wiki/Niccol%C3%B2\\_Paganini](https://en.wikipedia.org/wiki/Niccol%C3%B2_Paganini)

List hissiyotli va jozibali inson bo'lgan. Uning har bir konserti haqiqiy tomoshaga aylanardi. List butun Yevropaning idealiga aylandi va konsert safarlariga uch yil davomida muttasil baland va ommaviy muhokama etiluvchi “romanlar”ga hamrohlik qildi.

1835-1839 yillarda List grafinya Mari d'Agu<sup>63</sup>  
(fr. Marie Catherine Sophie de Flavigny, 1805-1876)

keyinchalik Daniel Stern taxallusi ostida nashr etilgan frantsuz yozuvchisi sifatida chiqish qilgan, u bilan birgalikdagi hayotini boshladi. Ularning turmushida uch farzand - o'g'il va ikki qiz tug'ildi. Farzandlarining



kichigi Kozima buyuk pianist va dirijor G. Fon Bulovga turmushga chiqqan, keyin esa R. Vagnerning rafiqasi bo'lgan.

1835-yildan 1839-yilgacha List Mari d'Agu bilan Shveysariyadan Italiyagacha katta sayohatni amalga oshirgan. O'zining Shveysariya haqidagi taassurotlarini List “Sayohatchi albomi” (1835-1836) nomi bilan fortepiano asarlari turkumida gavalantirgan. Bu turkum 3 qismdan iborat;

- *birinchi qism* – “Taassurot va poetik kechinmalar” yettita pyesadan tashkil topgan: “Lion”, “Buloqda”, “Vallenshtadt ko'lida”, “Jeneva qo'ng'iroqlari”, “Oberman vodiysi”, “Vilgelm Te lining butxonasi”, “Psalom”.

- *ikkinchi qismi* “Alp yaylovlari gullari” nomini olgan;

- *uchinchi qism* – “Parafrazalar”.



1837-yilning may oyida List Mari d'Agu bilan Italiyaga jo'nadi Uyg'onish davri italyan san'ati yodgorliklari ta'siri ostida List tomonidan keyinchalik “Sayohatning ikkinchi yili” shaklida qayta ishlangan asarlar yaratildi: “Nikoh” (Rafayel surati bo'yicha), “Mutafakkir” (Mikelanjelo haykali bo'yicha); uchta “Petrarka soneti”, “Danteni o'qigach” sonata-fantaziyasi va hokazo.

<sup>63</sup> [https://en.wikipedia.org/wiki/Marie\\_d%27Agoult](https://en.wikipedia.org/wiki/Marie_d%27Agoult)

Serunum konsert faoliyati 1839-1847-yillar qayd etilgan. List Avstriya, Belgiya, Angliya, Fransiya, Vengriya, Shotlandiya, Rossiyada chiqish qildi va 1849-yilda konsertlar turkumini berdi.

Undan tushgan mablag'ni Bonn shahridagi Betxoven yodgorligini barpo etish uchun sarflandi. Mazkur konsertlarda List tomonidan ijro etilgan asarlar ko'lamini cheksiz: shaxsiy transkripsiyadagi turli opera uverturalari, "Don Juan", "Figaroning uylanishi", "Iblis Robert", "Gugenotalar", "Norma" operalari mavzulariga parafrazlar, Betxovenning Beshinchi, Yettinchi simfoniyalari, Paganini kaprislari, Bax, Betxoven, Shopen, Shubert, Shumanlar asarlari va ko'plab shaxsiy asarlar (Vengr rapsodiyalari, "Petrarka sonetlari" va boshqalar).

1842-yil aprelda List Peterburgda chiqish qildi, 1843-yil mayda esa Peterburg va Moskvada. 1847-yil List Ukrainada (Kiyev, Odessa), Moldaviyada, Qora dengizdan Turkiyaga o'tib, Konstantinopolda konsert berdi.



Keyin esa Ukrainaga qaytdi, bu yerdagi Yelizavetgrad shahrida pianist-virtuozning sayohatlari davri yakuniga yetdi.



1839-yil Mari d'Agui bilan ajrashgach, List Nikolay Petrovich Vitgenshteynning sobiq turmush o'rtog'i polyak pomesligining qizi Karolina Yelizabetta Ivanovskaya<sup>64</sup> (*plyakcha. Karolina Elzbieta Iwanowska, 1819-1887, turmushdan so'ng*) bilan uchrashadi. 1848-yilning boshida List Karolina Vitgenshteyn bilan birgalikda Germaniyaga, Veymar shahriga kelib joylashadi. 1848-1861-yillarda birga yashashdi.

Kichik nemis shaharchasi Veymar bir vaqtlar gullab-yashnagan madaniy markaz bo'lgan va List unga san'at poytaxti sharafini qaytarishni orzu qilgan. List Veymar opera teatri dirijori etib tayinlandi. Opera teatriga o'n yillik rahbarligi davrida List turli bastakorlarning operalarini ko'plab sahnalashtirish ishlarini amalga oshirdi:

<sup>64</sup> [https://en.wikipedia.org/wiki/Carolyne\\_zu\\_Sayn-Wittgenstein](https://en.wikipedia.org/wiki/Carolyne_zu_Sayn-Wittgenstein)

- Glyukning: “Orfey”, “Alsesta”, “Armida”, Meyerbeming “Gugenotlar”i;
- Betxovenning: “Fidelio”si;
- Motsartning: “Don Juan” va “Sehrli nay”i;
- Rossinining “Vilgelm Tell” va “Otello”si;
- Veberning “Freyshyuts” va “Evrianta”si.

*Veymarda List o'z zamondoshlari operasini targ'ib etar edi:*

- Berliozning “Benvenuto Chellini” 1852-yili;
- Shumanning “Genoveva” 1855-yili;
- Vagnerning “Tangeyzer” (1849), “Loengrin” (1850), “Uchar gollandiyalik” (1853) operalari qo'yildi.

List Fransiyada Berliozning romantik uslubi tushunilmagan bir paytda bu bastakor musiqasi kunlarini uyushtiradi. List tomonidan Berliozning “Fantastik simfoniya”, “Garold Italiyada”, “Romeo va Julyetta”, “Faustni qoralash”, “Rim karnavali” asarlari ijro etildi. 1856-yilda Motsart tavalludining 100 yilligi munosabati bilan Venada o'tkazilgan kontsert kechasida List dirijorlik qildi.

Listning adabiy faoliyati yangi musiqani bosma so'z bilan faol targ'ib qilishida namoyon bo'ldi. U Berliozning “Garold Italiyada”si, Vagnerning “Tangeyzer”, “Uchar gollandiyalik”, “Loengrin” operalariga bag'ishlangan maqolalari katta tadqiqot bo'lib, ularda sanab o'tilgan bastakorlar ijodi va ularning asarlari tahlili berilgan. Veymarda Listning ikki kitobi yozilgan: “Shopen” (1849) va “Vengr loTilari” musiqasi haqida (1854).



List musiqiy asarlari ostiga o'zining shaxsiy imzosini qoldirishni odat qilgan. Veymar davrida List pedagoglik faoliyati bilan faol shug'ullangan. Ommaviy chiqishlardan voz kechgach, List o'zini yosh musiqachilarni tarbiyalashga bag'ishladi. List o'quvchilari qatorida yetuk pianinochi va dirijor Gans Bulov, pianinochi Karl Tauzig, bastakorlar Petr Kornelius va Ioaxim Rafflar bo'lgan. Butun umri davomida List 337 nafar o'quvchini tarbiyalagan. Ular orasida rossiyalik o'quvchilar ham bo'lgan (Aleksandr Ziloti, Vera Timanova).


1854-yili List Veymarda “Yangi Veymar uyushmasi”ni tuzdi, 1861-yili “Umumnemis musiqa uyushmasi”ga asos soldi. Ularning vazifasi yangi, ilg’or musiqa san’ati g’oyasini yoyish va buyuk bastakorlar - eskilari va zamonaviylarining ijodini targ’ib etish bo’ldi. Veymarda List chex musiqasining buyuk klassigi Bedrjih Smetana<sup>65</sup> (chex. *Bedřich Smetana*; 2.03.1824 – 12.05.1884), Iogannes Brams<sup>66</sup> (nem. *Johannes Brahms*; 7.05.1833 – 3.04.1897), vengr skripkachisi Edde Remini, rus kompozitorlari Aleksandr Nikolayevich Serov<sup>67</sup> (1820-1871), Anton Grigoryevich Rubinshteyn<sup>68</sup> (1829-1894) va boshqalar bilan uchrashadi.



*Bedřich Smetana*



*Johannes Brahms*



*Aleksandr  
Nikolayevich Serov*



*Anton Grigoryevich  
Rubinshteyn*

Veymar davrida 12 ta simfonik poema (13 tasidan), 15 ta vengr rapsodiya (19 tasidan), fortepiano konsertlarining yangi tahriri, “Oliy mahorat etudlari” va “Paganini kaprislari bo’yicha etudlar” yozildi. Si minor sonatasi ham shu davrda ijod qilingan.

Listning 12 ta simfonik poemasi dasturiy musiqaning go’zal namunalaridandir. Unda musiqiy obrazlar va ularning tadriji poetik hamda ma’naviy-falsafiy g’oyalar bilan bog’lanib ketgan List bir qismli shaklda yozilgan yirik dasturiy asar bo’lgan yangi romantik janr – “simfonik poema” yaratuvchisi bo’ldi. Simfonik poemalarda List tomonidan gavdalantirilgan obrazlar doirasi juda kengdir. Viktor Gyugoning she’rlariga yozilgan “Tog’da eshitganlarim” simfonik

<sup>65</sup> [https://ru.wikipedia.org/wiki/Сметана,\\_Бедржих](https://ru.wikipedia.org/wiki/Сметана,_Бедржих)

<sup>66</sup> [https://ru.wikipedia.org/wiki/Брамс,\\_Иоганнес](https://ru.wikipedia.org/wiki/Брамс,_Иоганнес)

<sup>67</sup> [https://ru.wikipedia.org/wiki/Серов,\\_Александр\\_Николаевич\\_\(композитор\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Серов,_Александр_Николаевич_(композитор))

<sup>68</sup> [https://ru.wikipedia.org/wiki/Рубинштейн,\\_Антон\\_Григорьевич](https://ru.wikipedia.org/wiki/Рубинштейн,_Антон_Григорьевич)

poemasida tabiatning ulug'vorligi, insoniy iztiroblar va kechinmalarga zid qo'yishdek romantik g'oyalarni mujassamlashtiradi.

Gyotening yuz yillik yubileyiga atab yozilgan "Tasso" simfonik poemasida Tassoning hayotligidagi iztiroblari va uning vafotidan so'ng ulug' iste'dodining zafarli tantanasi tasvirlanadi. "Orfey" (1854) simfonik poemasi Nemis kompozitori, asosan, opera, musiqiy klassizmning eng yirik vakillaridan biri Kristof Glyuk<sup>69</sup> (*nem. Christoph Willibald Ritter von Gluck, 1714-1787*) ning Veymardagi "Orfey" operasi postonovkasiga uvertura sifatida yozilgan. Mazkur simfonik poemada List san'at ramziga aylangan frakiyalik xonanda Orfey haqidagi mashhur qadimgi yunon afsonasini gavdalantirdi. "Prometey" (1850) simfonik poemasi dastlab Garderning "Prometeyning ozod etilishi" dramasi postanovkasiga uvertyura edi. Bu asar xudolardan olovni o'g'irlab, odamlarga tuhfa etgan yunon afsonasi qahramoni Prometeyning azamat obrazi bilan uyg'un. "Preludlar" simfonik poemasi avval Lamartin she'ri asosida yaratilgan bo'lib, Frantsuz yozuvchisi, akademiya a'zosi Jozef Otran<sup>70</sup> (*fr. Joseph Autran; 1813-1877*) ning matni asosidagi to'rt erkaklar xoriga kirish tarzida yaratilgan edi. Keyinroq uni qayta ishlash asnosida mustaqil simfonik poemaga aylantirish



jarayonida Frantsuz yozuvchisi va romantik yo'nalishdagi shoir, siyosatchisi List Alfons de Lamartin<sup>71</sup> (*fr. Alphonse Marie Louis de Prat de Lamartine, 1790-1869*) ning "Poetik mushohadalar" she'rini tanlaydi va uning matni musiqaga ko'proq mos kelishini anglab yetadi.

Listning boshqa simfonik poemalariga nazar tashlaymiz: "Mazepa" (1851, Viktor Gyugo bo'yicha), "Bayram jarangi" (1853), "Qahramon haqida yig'i-

<sup>69</sup> [https://en.wikipedia.org/wiki/Christoph\\_Willibald\\_Gluck](https://en.wikipedia.org/wiki/Christoph_Willibald_Gluck)

<sup>70</sup> [https://ru.wikipedia.org/wiki/Отран,\\_Жозеф](https://ru.wikipedia.org/wiki/Отран,_Жозеф)

<sup>71</sup> [https://en.wikipedia.org/wiki/Alphonse\\_de\\_Lamartine](https://en.wikipedia.org/wiki/Alphonse_de_Lamartine)

yo'qlov" (1850-1854), "Vengriya" (1854), "Gamlet" (1858, Shekspir tragediyasi bo'yicha), "Gurihlar jangi" (1857, nemis rassomi Vilgelm Kaulbax freskasi bo'yicha), "Ideallar" (1857, Shiller bo'yicha).

Veymar davrida ikki dasturiy simfoniya yozilgan: 1854-yilda uch qism ("*Faust*", "*Gretxen*", "*Mefistofel*") dan iborat "Faust" simfoniyasi, 1857-yilda ikki qism ("*Do'zax*" va "*Arosat*") dan iborat Dantening "Ilohiy komediya"si simfoniya hamda, Lenauning "Faustdan ikki epizod", "Tungi namoyish" va "Mefisto-vals" (1860) simfoniyasi yozilgan.

Rim va ikkinchi Veymar davri 1861-yilda List knyaginya Vitgenshteyn bilan nikohini ilojisiz qilib qo'yayotgan bir qator siyosiy va diniy xarakterdagi g'ovlarni bartaraf etishga umid qilib, Rimga otlandi Rim katolik cherkovi ularning ittifoqiga fотиha berishdan bosh tortgach, g'ayratli musiqachi charchagan va hayotdan hafsalasi pir bo'lgan holda tarki dunyo qildi. 1865-yil List abbatlik darajasini qabul qildi va bir necha yirik "Muqaddas Yelizaveta" (1862), "Xristos" (1866) oratoriyalari, "Vengr tojlanish messasi" (1867) nomli diniy asarlar yozdi.


Rim davrida List "O'rmon shovqini" va "Gnomlar yurishi" mashhur fortepiano etudlari (1862), "Ispan rapsodiyasi" (1863) va Betxoven, Verdi va Vagner asarlari transkripsiyalari dunyoviy yonalishlrida ham musiqa yozgan.

1869-yili List Veymarga qaytdi, bastakor ijodining so'nggi davri boshlandi. Bu davrda List Vena, Parij, Budapeshtga borib turar edi. 1875-yili Vatani, Budapeshtda u milliy musiqa akademiyasining birinchi prezidenti va o'qituvchisi etib tayinlangan. Veymarda Listning oldiga ko'psonli o'quvchilar kelishar edi: A. Ziloti, Sofya Metner, Vera Timanova, A. P. Borodin Listning huzurida bir necha marta bo'lgan. List tashabbusi bilan 1880-yilda A. P. Borodinning simfoniyasi ilk ijrosi Baden-Badenda uyushtirildi.

List rus bastakorlarini yaxshi ko'rar va ularning "Ruslan va Ludmila" operasidan Chernomor marshi, Chaykovskiyning "Yevgeniy Onegin" operasi, Alyabyevning "Bulbul", Rubinshteynning "Azra"sidan polonez asarlariga ko'plab transkripsiyalar yozdi. List tomonidan Aleksey Tolstoyning "So'qir mashshoq"i matniga melodeklamatsiya yozilgan.

Hayotining so'nggi yillarida List "Sayohatlarning uchinchi yili"ni yozdi. Unda bastakorning Rim taassurotlari aks etgan ("d'Este villasi sarvlari", "d'Este villasi favvorolari"). So'nggi davrda List ijodi qarama-qarshiliklarda o'tdi. Uning ijodida diniy mushohada unsurlariga ega bo'lgan musiqiy asarlar bilan birgalikda, musiqiy impressionizm manbalarini ochib beruvchi asarlar ham uchraydi ("Qo'ng'ir bulutlar" (1881), "Motam qayig'i" (1882)).

Ana shu davrda bir vaqtning o'zida List maishiy raqs janri bilan bog'liq uchta "Yoddan chiqqan vals" (1881 -1883), ikkinchi va uchinchi "Mefisto-vals» (1880 1883), "Mefisto-polka" (1883) nomli yorqin asarlarini yozdi. So'nggi yillarda List ommaviy chiqishlari qayta boshladi. Vagner vafotidan so'ng 1883-yili List Veymarda xotira konsertini o'tkazdi.



1886-yil boshida 75 yoshli List Angliyaga bordi, u yerda qirolicha Viktoriya tomonidan qabul qilinadi va uni qadrllovchilar tomonidan hayajon bilan kutib olinadi. Charchagan va o'zini yomon his qilayotgan List Angliyadan Bayretga har yilgi Vengriya festivaliga keladi. U ana shu shaharda 1886-yil 31-iyulda o'pka shamollashiga chalinib vafot etadi.

### **Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ashbrooke, William (n.d). "Chopin", in The New Grove Dictionary of Opera online, accessed 4 August 2014. (subscription required).
2. Atwood, William G. (1999). The Parisian Worlds of Frédéric Chopin. New Haven and London: Yale University Press. ISBN 978-0-300-07773-5.
3. Barcz, Maria (14 August 2010). "Etiuda paryska" [Paris Étude]. *Gwiazda Polarna* (in Polish). 101 (17). pp. 15-16.
4. Bibliothèque nationale de France BnF identifikatoru: açıq məlumat platforması - 2011.
5. Blanche Roosevelt. Verdi: Milan and Othello: Being a Short Life of Verdi, with Letters Written about Milan and the New Opera of Othello : [англ.]. - Cambridge : Cambridge University Press, 2013. - 298 p. - (Cambridge Library Collection - Music). - ISBN 9781108059633.
6. Chet el musiqə tarixi. Romantizm davri Shubert, Shopen, List. O'quv uslubiy qo'llanma. T;. -2008
7. Giovanni Masutto. I maestri di musica italiani del secolo XIX: notizie biografiche : [итал.]. - Venezia : G. Cecchini, 1834. - 226 p.
8. Holden, Raymond (2005). The Virtuoso Conductors: The Central European Tradition from Wagner to Karajan. New Haven, Conn.: Yale University Press. ISBN 0-300-09326-8.
9. Literature by and about Hans von Bülow in the German National Library catalogue
10. N.Ahmedova. Chet el musigasi (Romantizm) o'quv uslubiy qo'llanma. T;. -2008
11. Rtveladze E., Velikiy shelkoviy put. Ensiklopedicheskiy spravochnik, T., 1999.
12. Блок А. Михаил Александрович Бакунин, 1906.
13. Г. Риман Лист // Музыкальный словарь: Перевод с 5-го немецкого издания / под ред. Ю.Д. Энгель - М.: Музыкальное издательство П. И. Юргенсона, 1901. - Т. 2. - С. 768-771.
14. С. Лист, Франц // Энциклопедический словарь — СПб.: Брокгауз - Ефрон, 1896. - Т. XVIIа. - С. 759-760.

## Mundarija

Qadimgi dunyo antik davri .....	3
Qadimgi davr musiqa san'ati .....	5
Uyg'onish davri musiqa san'ati .....	12
Barokko davri musiqa madaniyati .....	19
Richard Vagner ijodi .....	21
Juzeppe Verdi ijodi .....	25
Jorj Bize ijodi .....	32
Volfgang Amadey Motsart ijodi .....	41
Lyudvig van Betxoven ijodi .....	44
Frans Peter Shubert ijodi .....	52
Friderik Shopen ijodi .....	61
Ferens (Ferens) List ijodi .....	65
Foydalangan adabiyotlar ro'yxati .....	78

**Ma'rufjon ASHUROV**

**CHET EL MUSIQASI RIVOJLANISHIDA  
KOMPOZITORLARNING O'RNI**

Uslubiy qo'llanma

*Nashr uchun mas'ul:* *R.Hamidov*

*Muharrirlar:* *M.Nasriddinov*  
*Sh.Ahmedov*

*Texnik muharrir:* *R.Ahmedov*

*Musahhixlar:* *Guluzroxon Mahkamova*  
*Nigoraxon Madumarova*

*Kompyuterda sahifalovchi:* *Ikromjon Xolmatov*

Bosishga 29.04.2023 yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1/8. "Tayms" garnitura.  
Shartli bosma tabog'i 4,93. Adadi 100 nusha.  
Bahosi shartnoma asosida.

"Poligraf super servis" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Farg'ona sh, Aviasozlar ko'chasi, 2 – uy.